

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqi asosida
UDK: 336,11

XABIBULLAYEV JAMSHID SHUXRATILLOYEVICH

**O‘ZBEKISTONNING XALARO MOLIYA TASHKILOTLARI
BILAN HAMKORLIK ALOQALARI**

Mutaxassislik: 5A230604 – Xalqaro moliya

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n., dots. Sh.Jalilov

TOSHKENT-2018

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

imzo

i.f.n., dots. Sh.Jalilov

Kafedra mudiri

imzo

prof. T.Malikov

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

imzo

i.f.n., dots. U.Ortiqov

Men, Xabibullayev Jamshid Shuxratilloevich ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “Qoniqarsiz” baho qo‘yilishidan xabardorman.

Xabibullayev J. _____ “ ___ ” _____

MUNDARIJA		BET
	KIRISH	3
I BOB.	XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING UMUMNAZARIY ASOSLARI	8
1.1.	Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi, nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari.....	8
1.2.	Jahon banki guruhi va uning tarkibidagi tashkilotlar faoliyati.....	14
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	28
II BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIGI HOLATI TAHLILI	29
2.1.	Xalqaro moliya tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida hamkorlikning amaldagi holati tahlili.....	29
2.2.	Xalqaro moliya tashkilotlaridan mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan kreditlar tahlili.....	45
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	57
III BOB.	XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN O'ZBEKISTON O'RTASIDAGI IQTISODIY MOLIYAVIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	60
3.1.	O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqboldagi hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari.....	60
3.2.	Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarni yaxshilash orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari.....	66
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	71
	XULOSA VA TAKLIFLAR	74
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	78
	ILOVALAR	82

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantish va takomillashtirish uchun zaruriy bo'lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yo'llari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda investitsion muhitning tobora yaxshilanib borayotganligi hamda barqaror bank tizimining yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko'lami yanada kengayib borayotganligi, bu holat o'z navbatida xalqaro moliya tashkilotlari va tijorat banklari o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalari yanada rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalarining rivojlanayotganligini ular tomonidan iqtisodiyotimizga qator yirik loyihalarga mablag'lar amalga oshirayotganligida ko'rish mumkin. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotini taraqqiy etish bilan bir qatorda mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda.

Xususan, bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Biz o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish asosida xorijiy davlatlar, eng avvalo, qo'shni davlatlar, shu bilan birga, xalqaro institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilishni bugungi kun talablari darajasida tashkil etamiz."¹

Bugungi kunda mamlakatimiz va xalqaro moliya tashkilotlarining amaliy aloqalariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Xalqaro valuta fondi (XVF), Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va shu kabi jahondagi yirik xalqaro moliya tashkilotlar bilan juda izchil va faol amaliy ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning to'g'ri ekanligiga qat'iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham o'zaro mustahkam iqtisodiy aloqalarni izchil davom ettirmoqdalar.

Xalqaro moliya institutlaridan biri bo'lgan Jahon bankining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ajratayotgan mablag'lari yildan yilga oshib bormoqda. 2016 yilda mazkur tashkilot tomonidan O'zbekistonga yo'naltirgan mablag'lari 63 mln.

¹ Sh. M. Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent: O'zbekiston, 2016 – 27 b.

AQSH dollarini tashkil etgan bo'sa, 2017-yilda esa bu ko'rsatkich 446 mln. AQSH dollariga yetgan. Joriy yilda esa mamlakatimizga Jahon banki tomonidan 940 mln. AQSH dollarlik yirik loyilarni amalga oshirishni ko'zlaydigan shartnomalar tuzildi.²

Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida tashqi iqtisodiy siyosatni rivojlantirish, huquqiy me'yoriy bazani takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 20-dekabrda "Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3439-sonli qarori xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishda muhim qadam bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasida yanada keng miqyosdagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida hamda boshqa yirik xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarni o'rnatish iqtisodiyotimizning jadal rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu borada taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishning zarurligi mazkur magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Investitsiyalar bo'yicha Davlat qo'mitasi va xalqaro moliya tashkilotlari va institutlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti esa mamlakatimiz bilan chet el mamlakatlari, xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasida yuzaga keladigan xalqaro moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali uning xalqaro moliya munosabatlaridagi o'rnini yanada mustahkamlash yuzasidan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagilar tadqiqot vazifalari etib belgilandi:

² www.worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

– mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantishda xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokining nazariy asoslarini o‘rganish;

– xalqaro moliya tashkilotlarining amaldagi faoliyatini tahlil qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlarini jalb etishning amaldagi holatini tahlil qilish;

– mamlakatimiz tijorat banklarida xalqaro moliya tashkilotlarining resurslari bilan yirik loyihalarni kreditlash holatini tadqiq etish

– O‘zbekiston Respublikasi bilan xalqaro moliya institutlar bilan hamkorlik aloqlarini yanada kengaytirish borasida tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqish;

Ilmiy yangiligi quyidagilar hisoblanadi:

◆ xalqaro moliya tashkilotlarining mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilindi;

◆ mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida yirik loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan jalb qilinayotgan mablag‘larini tahlil qilindi;

◆ mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashda vujudga kelayotgan muammolar ochib berildi;

◆ mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishiga zamin yaratadigan yirik investitsion loyihalarni amalga oshirishda xalqaro moliya tashkilotlarining o‘rni tahlil qilinib, istiqbolda ular bilan aloqalarni kengaytirishga doir xulosa va qator taklif, tavsiyalar berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Xalqaro moliya tashkilotlarning tashkiliy asoslari, jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotiga ularning keng ko‘lamdagi ajratayotgan mab‘larining tahlili va shuningdek, mamlakatimizning ham xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishida yaratilayotgan qulay investitsion muhit hamda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan o‘zaro moliyaviy aloqalarini amaldagi holatini tahlil qilish tadqiqot ishining asosiy masalasi hisoblanadi.

Dissertatsiya yakunida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarining amaliyotda qo‘llanishi mamlakatimizning istiqbolda xalqaro moliya tashkilotlar bilan

hamkorlik yo‘nalishlarini kengayishiga o‘zining samarasini berishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Xalqaro moliya operatsiyalarini boshqarish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlardan Jeff Madura³, Heribert Golsong⁴, Damon P.Coppola⁵, Peter J. Montiel⁶, Colin D.Campbell, Edwin G. Golan⁷, S.R.Moiseyev, L.N.Krasavina⁸, Mukesh Ralhan⁹, C.Paramasivan, T.Subramanian¹⁰, Xalqaro Valuta Fondi ekspertlari David Marston, Johnatan Ostry¹¹ kabilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Mamlakatimiz iqtisodchilaridan esa G‘.Nazarova, I.A.Ahmedov, O.B.Hamidov hamda Z.M.Iminov¹² A.Vahobov, J.Ataniyazov, E.Alimardonov¹³, Burxanov, N.Jumayev¹⁴, G.Nazarova, kabilarning ilmiy ishlarida xalqaro moliya operatsiyalarining ayrim masalalari tadqiq qilingan.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot obyektlarini o‘rganishda moliyaviy tahlil va iqtisodiy-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishi yakunida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatimizning xalqaro moliya institutlar kreditlarini iqtisodiyotimizga keng miqyosda jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot ishi ma’lumotlaridan sohaga tegishli ilmiy tadqiqotlarda manba sifatida, Oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari o‘qitish tizimlarida “Xalqaro moliya munosabatlari” fani o‘quv jarayonlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi kirish, 3ta bob, har bir bob bo‘yicha xulosa, yakuniy xulosa va takliflar,

³ “International financial management” 11 edition

⁴ “International organizations in General universal international organizations and cooperation”

⁵ “Multilateral organizations and international financial organizations” Article www.sciencedirect.com

⁶ “Capital inflow problem”, the World bank, Washington D.C.

⁷ Money, banking, and monetary policy, the Dryden Press, a division of Holt

⁸ «Международные финансовые рынки и международные финансовые институты, Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права.

⁹ “Determinants of capital flows: a cross-country analysis”, department of Economics, University of Victoria, Victoria, BC, Canada

¹⁰ “Financial management”, New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women

¹¹ Liberalizing capital flows and managing outflows, International Monetary Fund

¹² “Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar” T.:2011

¹³ “Xalqaro moliya munosabatlari”, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T: 2014

¹⁴ “Xalqaro moliya munosabatlari”, Toshkent moliya instituti, T: 2003.

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, 14 ta jadval, 8 ta rasmdan iborat va 81 betni tashkil etadi.

Tadqiqot ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan, uning predmeti, obykti, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, ishning nazariy-amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Ishning birinchi bobida xalqaro moliya tashkilotlari tasniflanishi nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari hamda ularning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida xalqaro moliya tashkilotlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida hamda tashkilotlarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilayotgan kreditlarining amaldagi holati tahlil qilingan.

Ishning uchinchi bobida O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqboldagi hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari hamda ular bilan aloqalarini yaxshilash orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Ishning xulosa va takliflar qismida shakllantirilgan xulosalar va ishlab chiqilgan takliflarning qisqacha mazmuni aks ettirilgan.

I BOB. XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATI

RIVOJLANISHINIG UMUMNAZARIY ASOSLARI

1.1. Xalqaro moliya tashkilotlarining tasniflanishi, nazariy va tashkiliy-huquqiy asoslari

Xalqaro valuta-kredit hamda moliyaviy munosabatlarning institutsional tuzilishi o'z ichiga qator xalqaro moliya tashkilotlarni qamrab oladi. Ko'plab xalqaro moliya institutlar soha doirasida ko'pgina vakolat larga hamda yirik miqdordagi moliyaviy resursga ega bo'lgan holda xalqaro valuta-kredit va moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi. Boshqalari esa, davlatlararo muhokama etish uchun turli xil forumlar tashkil etish hamda valuta-kredit va moliya siyosati bo'yicha taklif, tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni har tomonlama tartibga solishning shakllanishi va rivoji xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatiga uzviy bog'liq.

Xalqaro moliya tashkilotlari o'zida jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash uchun moliya va valuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadida hukumatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi. AQShlik iqtisodchi olim Damon P.Coppola mazkur iqtisodiy tashkilotlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Xalqaro moliya institutlari rivojlanayotgan davlatlarga texnik va moliyaviy yordam ko'rsatish uchun a'zo davlatlarning pul mablag'laridan foydalanadigan mustaqil a'zo davlatlardan iborat bo'lgan xalqaro banklardir"¹⁵

Xalqaro moliya tashkilotlarning vujudga kelishiga jahon iqtisodiyotining globallasuvi, xalqaro moliya bozorlarining va jahon valuta tizimidagi beqarorlikning kuchayishi sabab bo'lgan. Ular asosan ikkinchi jahon urushidan keyin tashkil topa boshlagan va hozirgi kunda mamlakatlarning valuta – kredit va moliya munisabatlari sohasidagi hamkorlikni izchil rivojlantirishda hamda ushbu munosabatlarni xalqaro darajada tartibga solishda muhim rol o'ynamoqda.

¹⁵ www.sciencedirect.com Damon P.Coppola "Multilateral organizations and International Financial Institutions" Chapter 10.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining asosini a'zo bo'lgan mamlakatlarning fikr-mulohazalarini oshkor qilish, bir-biri bilan kelishtirish, bu asosdagi vaziyatlarni bir maqsadga aylantirish, shuningdek, kelib chiqqan vazifalarni aniqlashtirib, ularni hal etish, chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat. Tashkilotning asosiy faoliyati muhokama, qaror qabul qilish va ularni amalga oshirish, ijrosini nazorat kabilarni o'z ichiga oladi.¹⁶

Xalqaro moliya institutlarining vujudga kelishi 3 bosqichda amalga oshgan bo'lib, birinchi bosqichi birinchi hamda ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrga to'g'ri keldi. Ikkinchi bosqichi ya'ni ular faoliyatining kuchayish jarayoni ikkinchi jahon urushidan so'ng mustamlakachilik tizimining parchalanishi va 1970-yillardagi iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan. Uchinchi bosqichi esa 1980-yillarning boshlarida boshlangan. Negaki, ushbu davrda jahon iqtisodiyotida globallasuv jarayonining kuchayishi va integratsion jarayonlar jadallashgan. Jahondagi bir qator davlatlarning hukumat organlari zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi muammolarni hamkorlikda bartaraf etishga bo'lgan ehtiyoj sezilar hamda buning natijasida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga bo'lgan talab ortib borgan.

Davlatlarning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi uning har tomonlama rivojlanish imkoniyatini beradi. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish boshqa a'zo davlatlar bilan hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlar va davlatlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etadi. Davlatlar o'rtasidagi aloqalar ko'lamini ortishi bevosita xalqaro moliya tashkilotlar faoliyatiga uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, hozirgi kunda xalqaro moliya tashkilotlarini jahon xo'jaligi muammolari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqarish, rivojlanish tendensiyalari to'g'risida ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish sohasidagi ahamiyati ham ortib bormoqda.

Xalqaro moliya tashkilotlarning vujudga kelishi ma'lum bir omillarga bog'liq bo'lib, ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

¹⁶ Vaxobov A.V, Tadjibayeva D.A.Xajibakiyev Sh.X "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" Moliya, 626-627 betlar.

- xo‘jalik hayoti baynalminallashuvining kuchayishi, milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi transmilliy korporasiyalar va transmilliy banklarning tashkil topishi;

- jahon xo‘jaligida moliyaviy munosabatlarni xalqaro tartib solishga bo‘lgan ehtoyojninh kuchayishi;

- jahon valuta tizimi, xalqaro valuta-kredit, qimmatbaho qog‘ozlar va oltin bozorlaridagi yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal qilish zaruriyatini ortib borishi.

Hozirgi vaqtda xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlarning valuta-kredit va moliya munosabatlari sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda hamda ushbu munosabatlarni davlatlararo tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- axborot funksiyasi
- maslahatchi funksiyasi
- tartibga solish funksiyasi
- bashorat qilish funksiyasi

Axborot funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari jahon iqtisodiyoti rivojlanish holati yoki biror bir davlat iqtisodiy holati haqida ma’lumot olish mumkin bo‘lgan axborot funksiyasini bajaradi. Shu bilan birga o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalar, tadqiqotlar bo‘yicha statistik ma’lumotni nashr etib boradi.

Maslahatchi funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlarning hukumatlariga valuta-kredit va moliya siyosatini o‘tkazish bo‘yicha maslahat beradi.

Tartibga solish. Xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro moliya munosabatlarini tartibga solish funksiyasini ham bajaradi. Xalqaro valuta fondi to‘lov balansida muammoga ega bo‘lgan davlatlarga vaqtinchalik moliyaviy yordam ko‘rsatadi.

Bashorat qilish funksiyasi. Xalqaro moliya tashkilotlari mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish tendensiyasiga qarab milliy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishini bashorat qiladi.

Xalqaro moliya tashkilotlari a'zo mamlakatlarning moliyaviy resurslarini birlashtirish orqali o'z faoliyatini tashkil etadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kerakli masalalarni bo'yicha faoliyat yuritadi. Bu masalalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- xalqaro savdoni rivojlantirish, jahon iqtisodiyotini tartibga solish uchun xalqaro valuta va fond bozoridagi operatsiyalar;

- budget defitsitini moliyalashtirish va davlat loyihalarini amalga oshirishga kreditlar;

- xalqaro loyihalar, to'g'ridan-to'g'ri shuningdek, resident tijorat tashkiloti orqali ishtirok etuvchi bir nechta mamlakatlar manfaatlariga dahldor bo'lgan loyihalarni kreditlash va investitsiya faoliyati;

- xalqaro biznesga ijobiy ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan infratuzilma loyihalari, informatsion texnologiyalar sohasidagi loyihalar, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish hamda bitta mamlakat yoki rezidentning tijorat tashkiloti manfaatlariga bevosita dahldor bo'lgan ichki loyihalarni kreditlash va investitsion faoliyati;

- fundamental ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va hayriya faoliyatini, xalqaro yordam dasturlarini moliyalashtirish.

Xalqaro moliya tashkilotida alohida davlatning ustunligi tashkilot kapitalida shu davlatning ulushi miqdori bilan belgilanadi. Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi a'zo davlatlar hukumati hamda davlat tashkilotlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarga bo'g'liq. Xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati yirik xalqaro loyihalarni amalga oshiradigan va sug'urta qiladigan davlat tashkilotlari bilan o'zaro aloqada bo'lishni talab etadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, mintaqaviy, faoliyati jahon xo'jaligini ma'lum bir sohasini qamrab oluvchi tashkilotlarga ajratiladi.

Hozirgi paytda bir-biridan ayrim jihatlari bilan farq qiladigan bir nechta xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) – yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Mazkur tashkilotning barpo etilishi to'g'risidagi qaror SSSR, AQSH, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa SanFransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilingan. BMT ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 ga yetgan. Ayni vaqtda esa a'zo bo'lgan mamlakatlar soni 191 dan oshgan. Tashkilotning bosh shtab kvartirasi AQSHning NyuYORK shahrida joylashgan. BMT ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi. BMT ning moliyaviy manbasi a'zo davlatlar a'zolik badallaridan tashkil topgan badal to'lovlaridir.

BMT iqtisodiy sohada asosan quyidgi 4 yo'nalish bo'yicha faoliyat olib boradi:

1. Global muammolarni hal etish;
2. Davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga ko'maklashish;
3. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi uzilishlarni yengib o'tish;
4. Hududiy rivojlanishni rag'batlantirish.¹⁷

Ba'zi xalqaro tashkilotlar o'z faolitada mustaqil hisoblangan hukumatlararo tashkilotlar bo'lsa-da, ko'pchilik tashkilotlar BMT ning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar 4 guruhga bo'linishi mumkin.

- BMT tizimiga kiruvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
- umumjahon miqyosda faoliyat yurituvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;
- mintaqaviy xalqaro iqtisodiy tashkilotlar;

¹⁷ G.G'.Nazarova, I.A.Ahmedov, O.B.Hamidov, Z.M.Iminov. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. T.:2011. 24 bet.

- taraqqiyot banklari va xalqaro fondlar.

Xalqaro valuta fondi xalqaro valuta-kreditlash tashkiloti bo'lib, BMT ning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi. Bu fond AQSHning poytaxti Washington shtatida joylashgan. 1944-yilda Bretton Vudsa Valuta Moliya konferensiyasida "Xalqaro valuta fondi" to'g'risida kelishuv deb qo'yildi. 1945-yilda Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki bilan birgalikda Xalqaro valuta fondi yaratilishi belgilandi. Tashkilot valuta muammoalari bo'yicha maslahatlar berish, xalqaro savdoni o'sishi va kengayishiga sharoit yaratib berish, a'zo mamlakatlarning xalqaro to'lov balansini davomiy defitsitdan qisqartirish, xalqaro savdoni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi va uni almashtirish bo'yicha cheklovlarni bartaraf etish, to'lov uchun ko'p tomonlama tizim yaratishga yordam berish maqsadlarida tashkil qilingan. Mazkur xalqaro iqtisodiy tashkilot BMTning nizomiga muvofiq faoliyat yuritadi. Nizom kapitali taxminan 100 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi, shuningdek, 30 mlrd AQSH dollar vaqtincha jalb qilingan mablag'lar hisoblanadi. Tashkilot har yili 6 mlrd AQSH dollar miqdorida kredit ajratadi. Kredit operatsiyalari tashkilotga a'zo davlat to'lov balansi defisitini qoplash maqsadida zarur bo'lgan mablag'ni chet el valutasida milliy valuta o'rniga 3-5 yillik muddatga olishi orqali amalgam oshiriladi. Mamlakat kreditni o'zining milliy valutasiga konvertatsiyalanidigan valuta orqali qoplashi mumkin.

Xalqaro valuta munosabatlarni tartibga solishda bevosita ishtirok etadigan yana bir xalqaro moliya tashkiloti bu Xalqaro hisob kitoblar banki hisoblanadi. Tashkilot bir tarafdin aksionerlik kompaniyasining tizimiga ega hamda xalqaro moliyaviy operatsiyalar uchun qo'shimcha ijobiy shart sharoitlar yaratilishini ta'minlash, xalqaro hisob kitoblarda moliyaviy agent rovida ishtirok etish hamda taraflar tomonidan qo'yilgan majburiyatlarni bajarish maqsadlarida tashkil etilgan.

Xalqaro moliya munosabatlarda faol ishtirok etayotgan yana bir yirik xalqaro moliya instituti bu Jahon Savdo Tashkiloti hisoblanadi. JST ko'p tomonlama savdo tizimlarining huquqiy institutsional asosidir. U mihim shartnoma majburiyatlarni ta'minlaydi. Bu shartnoma majburiyatlari hukumatlarga ichki qonunchilikni shakllantirish va amalga oshirishda, shuningdek tashqi savdoni

boshqarishni aniqlab beradi. Asosiy maqsadlari esa jahon iqtisodiyotini mustahkamlash, butun dunyoda barcha kuchlarni savdoni rivojlantirish, investitsiyalarni ko'paytirish hamda ularni bandlik va daromad qatlamini oshirishga yo'naltirishdan iborat.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ham o'z faoliyati bilan jahondagi ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga samarali hissa qo'shayotgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlardan biri hisoblanadi. Mazkur tashkilot Yevropadagi davlatlar birlashmasi bo'lib, 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan Yevropani tiklash bo'yicha Amerika iqtisodiy va moliyaviy yordamini (Marshall rejasi) oqilona ishlatish va shu yordamni oladigan Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadlarida Yevropa iqtisodiy hamkorlik vorisi tarzida tashkil etilgan. Bu iqtisodiy tashkilotni tuzish to'g'risidagi konvensiya 1960-yil 14-dekabrda Fransiyaning Parij shahrida imzolaniib, 1961-yil 1-oktabrdan kuchga kirgan. Tashkilot 21 ta mamlakatlardan iborat.

1.2. Jahon banki guruhi va uning takibidagi tashkilotlar faoliyati

Jahon banki xalqaro moliya tashkiloti hisoblanib, rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy va texnik ko'mak berib ularning iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shish maqsadida tashkil etilgan. Tashkilot 1944-yil Bretton-Vudsdan tashkil etilgan bo'lib, hozirgi vaqtda shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan. Dastlab Jahon banki sifatida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tushinilgan. 1960-yilga kelib esa, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi tuzildi hamda Jahon banki deganda ushbu ikki yirik tushinila boshlangan. Keyinchalik ushbu ikki tashkilotga yana uch tashkilot qo'shildi. Ular Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik va Investitsion bahslarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markaz. Jahon bankining asosiy vazifasilaridan biri iqtisodiy taraqqiyotni moliyalashtirish hisoblanadi. Agarda Jahon bankining birlamchi kreditlari ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropaning iqtisodiyotini tiklashga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik jahonning qoloq mamlakatlari iqtisodiyotini tiklashga qaratilgan.

Hozirgi vatda Jahon bankining asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, mazkur mamlakatlarning ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam berish, aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ko‘maklashishdir.

Hozirgi davrda Jahon banki ming yillik Deklaratsiyasiga muvofiq o‘z faoliyatining asosiy vazifalarini belgilab olgan. Ming yillikdagi rivojlanish maqsadlariga 2025-yilgacha erishish lozim bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- kambag‘allik va ochlikka barham berish;
- umumiy boshlang‘ich ta‘limni ta‘minlash;
- bolalar o‘limini qisqartirish;
- onalik muhofazasini yaxshilash;
- VICH(SPID) bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish;
- atrof-muhitni barqaror rivojlanishini ta‘minlash;
- rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni shakllantirish.¹⁸

Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo‘lgan mamlakatlar uchun mablag‘larni mujassamlaydi. Ammo, tashkilot boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga kreditlar ajratmaydi. Mazkur tashkilot o‘z faoliyatini rivojlanayotgan va qoloq davlatlarga texnik loyihalarni, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish orqali bu davlatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ko‘maklashadi. Bu vazifalar bankning asosiy uzoq muddatli vazifalari hisoblanadi. Oxirgi yillarda bank oldingi yillardagi tajribasiga tayangan holda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari darajalarini inobatga olib, loyihalarni tanlash jarayonini asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy darajalarini oshirishni inobatga olgan holda olib bormoqda.

Quyida Jahon Banki tarkibidagi tashkilotlarning so‘ngi yillardagi faoliyati o‘rganib chiqib, ularning xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda qanchalik samarali ishlar olib borayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

¹⁸ www.worldbank.org ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

1.1-jadval

2013-2017 yillarda Jahon banki guruhi tomonidan a'zo mamlakatlarni moliyalashtirish ko'rsatkichlari (mlrd AQSH dollari hisobida)¹⁹

Yillar	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Jahon banki guruhi					
Zahira qilingan mablag'lar	50,232	58,190	59,776	64,185	61,783
Ajratilgan mablag'lar	40,570	44,398	44,582	49,039	43,853
XTTB					
Zahira qilingan mablag'lar	15,249	18,604	23,528	29,729	22,611
Ajratilgan mablag'lar	16,030	18,761	19,012	22,532	17,861
XRA					
Zahira qilingan mablag'lar	16,298	22,239	18,966	16,171	19,513
Ajratilgan mablag'lar	11,228	13,432	12,905	13,191	12,718
XMK					
Zahira qilingan mablag'lar	11,008	9,967	10,539	11,117	11,854
Ajratilgan mablag'lar	9,971	8,904	9,264	9,953	10,355
Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik					
Sug'urta qoplamasining umumiy hajmi	2,781	3,155	2,828	4,258	7,842
Trast fondlarini oluvchilar					
Zahira qilingan mablag'lar	4,897	4,225	3,914	2,910	2,962
Ajratilgan mablag'lar	3,341	3,301	3,401	3,363	2,919

Yuqoridagi jadvalda ko'rish mumkinki, 2013-2017 yillarda Jahon banki guruhi a'zolarining moliyalashtirish ko'rsatkichlari qayd etib o'tilgan.

Jahon banki guruhi tomonidan a'zo davlatlarni moliyalashtirish ko'rsatkichlari 2017-yilda 2016-yilga nisbatan kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, so'ngi yillarda XTTB tomonidan ajratgan mablag'lar 2013-yildan 2016-yilgacha ortib borgan hamda 2016 yil ajratilgan mablag'lar 22,532 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. Lekin, 2017-yilda esa moliyalashtirish ko'rsatkichi biroz kamroq ya'ni 17,861 mlrd AQSh dollariga yetgan. XTTB va XRA larning 2017 yillardagi ajratgan mablag'larining kamaygan hamda bu Jahon banki umumiy ajratgan mablag'larining ushbu yildagi ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir qilgan. 2017-yilda 2016-yilga nisbatan bu ko'rsatkich 2,402 mlrd dollarga kamaygan.

¹⁹ Annual report of World bank 2017 (<http://siteresources.worldbank.org>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

**2017-yilda Jahon banki guruhining ajratgan mablag‘larini mintaqalar
bo‘yicha taqsimoti.²⁰**

№	Mintaqalar	Ajratilgan mablag‘ (mlrd AQSh dollar)	Jamiga nisbatan foizda
1	Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi	9,7	15,7
2	Yevropa va Markaziy Osiyo	9,5	15,4
3	Lotin Amerikasi va Karib ko‘rfazi	9,7	15,7
4	Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	7,1	11,4
5	Janubiy Osiyo	9,6	15,6
6	Janubiy Afrika	16,2	26,2
	Jami	61,8	100

Mazkur jadvaldan ko‘rsatib turibdiki, 2017-yilda Jahon banki guruhi tomonidan ajratilgan mablag‘larning asosiy qismi Janubiy Afrika mintaqasiga yo‘naltirilgan. Ushbu mintaqaga yo‘naltirilgan mablag‘lar 2017 yilda 16,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan. tashkil qiladi. Keyingi o‘rinda Lotin Amerikasi va Karib ko‘rfazi mintaqasi hamda Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi tashkil etmoqda.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki Jahon bankining asosiy kredit tashkiloti hisoblanadi. U quyidagi maqsadlarda tashkil etilgan:

- xususiy chet el kapitalini jalb qilishni rag‘batlanturush;
- xalqaro savdoning uzoq muddatli balanslashtirilgan o‘shini ta‘minlash va to‘lov balansi muvizanatini ushlab turishga yordamlashish;

Ushbu bankga a‘zo bo‘lish uchun ariza taqdim etgan mamlakat birinchi navbatda Xalqaro valuta fondiga a‘zolikka kirgan bo‘lishi kerak. Bankning barcha qarzlari a‘zo davlatlar hukumatlari tomonidan kafolatlanishi kerak. Qarzlarni bo‘yicha har olti oyda o‘zgaruvchan foiz stavkasi qo‘llaniladi. Qarzlarni asosan

²⁰ www.worldbank.org ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

15-20 yil muddatga, asosiy qarz summasi bo'yicha to'lovlarni 3-5 yilga uzaytirish tartibida beriladi. Qarz berish davlat hukumatining kafolati olingandan so'ng amalga oshiriladi.

1.3-jadval

XTTB ning eng yirik qarzdorlari (2017-yil holatiga mln. AQSh dollari)²¹


№	Mamlakatlar	Zahira qilingan mablag'lar
1	Xitoy	2420
2	Hindiston	1776
3	Indoneziya	1692
4	Kolumbiya	1687
5	Argentina	1525
6	Misr	1500
7	Iroq	1485
8	Turkiya	1083
9	Ukraina	650
10	Ruminiya	625

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2017-yil yakuniga ko'ra XTTB ning eng yirik qarzdorlari Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Kolumbiya, Argentina, Misr, Iroq, Turkiya Ukraina hamda Ruminiya davlatlari hisoblanadi.

Xalqaro bankning huquq organlarini bir qarorga kelishida ko'pchilikning ovozi hisobga olinadi. Aksionerlik kapitali 14 mlrd dollarni tashkil etadi, bir yilda o'rta hisobda 15 mlrd dollar kredit beradi. To'lanadigan kapital 9% ni tashkil etadi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining aksionerlik kapitalining uchdan bir qismi AQSh davlatiga tegishli. Bank boshqaruvida umumiy ovozning 50 % AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya davlatlariga tegishli. Kreditlar asosan iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish uchun beriladi. 2017-yilda XTTB va XRA tomonidan ajratilgan mablag'lar mintaqalar bo'yicha farqlanadi (1.1-rasm). XTTB va XRA

²¹ www.worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

mablag‘larini mintaqalar bo‘yicha hamda sohalar bo‘yicha ajratadi. 2017-yilda XTTB tomonidan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika minatqasiga katta miqdorda kredit ajratganini ko‘rishimiz mumkin.



1.2-rasm. 2017-yilda XTTB va XRA tomonidan mintaqalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar.²²

Keyingi o‘rinlarda Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Lotin Amerikasi va Karib ko‘rfazi, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi, Janubiy Afrika, Afrika mintaqasiga ajratilgan. XRA tomonidan esa eng katta miqdordagi kredit Afrika mintaqasiga ajratilgan bo‘lib, 6,623 mln AQSh dollarini tashkil qiladi. Lotin Amerikasi va Karib ko‘rfazi mintaqasiga esa eng kam miqdordagi, ya’ni 0,229 mln AQSh dollari miqdorida kredit ajratilgan.

Qarzar Bankka a’zo davlatlar hududida joylashgan va ularning siyosiy birligi tashkil etuvchi xususiy korxonalariga davlat kafolati ostida beriladi. XTTB tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga 2014-yildan buyon turli xil sohalar bo‘yicha hamkorlik doirasida investitsiyalar ajratib kelinmoqda (1.4-jadval). XTTB ning ajratgan mablag‘larini sohalar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, XTTB ning ajratgan mablag‘larini asosiy qismi davlat boshqaruvi sektoriga ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin. XTTB 2014-yilda 18604 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratgan bo‘lsa, 2015-yilda 23528 mln AQSh dollari,

²² www.worldbank.org ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2016-yilda 29729 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratgan. 2017-yilda esa 22612 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratgan bo‘lib, 2016-yilga nisbatan 7117 mln AQSh dollariga kamaygan.

1.4-jadval


XTTB tomonidan sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘lar (mln. AQSh dollar)²³

№	Soha	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
1	Qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, o‘rmon xo‘jaligi	829	843	561	754
2	Ta‘lim	1192	1496	1788	1074
3	Energetika va qazilma	2359	3361	4599	4434
4	Moliya tizimi	1360	3433	2657	1879
5	Sog‘liqni saqlash	793	893	1181	1189
6	Informatika va aloqalashtirish texnologiyalari	262	90	194	503
7	Davlat boshqaruvi sektori	4162	3175	5111	4754
8	Ijtimoiy himoya	1006	2687	1393	778
9	Transport	4089	3202	4569	2551
10	Suv ta‘minoti, quvurlarni tiklash va toshqindan himoyalash	1147	2664	4192	2000
11	Sanoat, savdo va xizmatlar	1106	1684	3483	2694
	Jami	18604	23528	29729	22612

Suv ta‘minoti, quvurlarni tiklash va toshqindan himoyalash sohasiga ajratilgan mablag‘ 2017-yilda 2016-yilga nisbatan deyarli 2 baraborga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Informatika va aloqalashtirish texnologiyalariga ajratilgan mablag‘ esa 2016-yilda 194 mln AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2017-yilda 503 mln AQSh dollar bo‘lib, 309 mln AQSh dollari miqdoriga kamayganini ko‘rishimiz mumkin.

Har uch yilda Jahon banki guruhi tomonidan “Jahon banki guruhi faoliyatining strategiyasi” nomli hujjat ishlab chiqiladi, ushbu hujjatdan mamlakatlar bilan bo‘ladigan hamkorlikda foydalaniladi.

²³ www.worldbank.org ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



1.2-rasm. 2017-yilda XTTB va XRA tomonidan umumiy kreditlashning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti.²⁴

1.2-rasmda XTTB va XRA ning tarmoqlar bo'yicha ajratgan mablag'lari aks ettirilgan. Undan biz 2017-yilda XTTB va XRAning asosiy mablag'lari moliya hamda ijtimoiy himoya sohalariga ajratilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tarmoqlarga ajratilgan mablag'larning ulushi teng nisbatda 17% va 14% ni hosil qilmoqda. Mablag'larning eng kam miqdori ya'ni 2 % esa aloqa va axborotlashtirish tarmog'iga jalb qilingan. Shuningdek, transport, davlat boshqaruvi kabi tarmoqlariga ham samarali mablag'lar jalb qilingan.

Tarmoqlarga keng ko'lamda ajratiladigan mablag'lar albatta, mamlakatlarning iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanishiga imkon yaratadi. Bu orqali esa nafaqat iqtisodiyot balki mablag'lar jalb qilinayotgan mamlakatlarning aholi bandligini ta'minlash orqali ularning turmush sharoitini yaxshilanishiga ham zamin yaratadi.

²⁴ www.worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1.5-jadval

XTTB tomonidan 2013-2017-yillarda amalgam oshirilgan operatsiyalar,
mln. AQSh dollar²⁵

XTTB(million AQSH Dollari.)	2013 y	2014 y	2015 y	2016 y	2017 y
Zahira qilingan mablag‘lar	15,249	18,604	23,528	29,729	22,611
Shundan rivojlanish sohasidagi siyosatni qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi kreditlar	7,282	7,997	7,207	13,210	51,542
Ajratilgan mablag‘lar, brutto	16,030	18,761	19,012	22,532	17,861
Shundan rivojlanish sohasidagi siyosatni qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi kreditlar	5,972	9,786	8,935	12,068	4209,09
Asosiy summani qaytarish(shu jumladan muddatidan oldin qaytarish)	9,470	9,805	9,005	9,327	9,130
Ajratilgan mablag‘lar, brutto	6,361	8,956	10,007	13,204	5279,00
Qaytarilmagan qarzlari	143,776	154,021	157,012	169,655	177,422
Ajratilmagan kredit mablag‘lari	61,306	58,449	60,211	65,909	65,588
Asosiy faoliyatdan daromad	968	769	686	593	795
Erkin kapital va zahiralari	39,711	40,467	40,195	39,424	441,720
Xususiy kapital va berilgan qarzlarni o‘zaro nisbati	26,8%	25,7%	25,1%	22,7%	22,80%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ma’lumki, XTTB so‘ngi 2017-yilda 22,611 mlrd. AQSH dollari miqdordagi kredit resurslarini zahira qilgan holda 2016-yilga nisbatan 7,1 mln. AQSH dollariga kamaygan. Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar esa so‘ngi 4 yilda oshganligi ko‘rish mumkin. Bu foyda 2017-yilga kelib 795 mln. AQSH dollariga yetgan.

Xalqaro rivojlanish assotsiyatsiyasi mamlakatlarda imtiyozli kreditlar berish bilan shug‘ullanib, ular donor mamlakatlar tomonidan beriladigan xayriya mablag‘lari asosida moliyalashtiriladi.

Xalqaro rivojlanish assotsiyasi(XRA) – Jahon bankiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo‘lib, 1960-yilda tashkil etilgan. XRA iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, samaradorlikni oshirish, sust rivojlangan a’zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, qulay shartlarda moliyaviy ko‘mak berish maqsadida tashkil etilgan.

XRA strategiyasi sifatida quyudigilarni ko‘rishimiz mumkin:

²⁵ Annual report of World bank 2014 (<http://siteresources.worldbank.org>) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- makroiqtisodiy va tarmoq siyosatining puxta o‘ylangan chora-tadbirlarini qabul qilish orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish;
- ijtimoiy sohalarni mustahkamlanishini va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash orqali inson kapitaliga investitsiyalar;
- boshqaruv samaradorligini oshirish uchun tashkiliy-texnik imkoniyatlarni kengaytirish;
- barqaror rivojlanish maqsadlarida atrof-muhitni saqlash;
- qurolli to‘qnashuvlar oqibatlarini bartaraf etishga ko‘maklashish;
- mintaqaviy integratsiya va savdoni qo‘llab-quvvatlash.

XRA foizsiz kreditlar beradi. Yalpi ichki maxsuloti aholi jon boshiga \$ 835 dan kam bo‘lgan mamlakatlar XRA dan qarz olish huquqiga ega. XRA 10 yil imtiyozli davr bilan 30-40 yilga foizsiz kredit beradi. Ajratilgan kredit miqdorining 0,5 % i miqdoridagi xarajatlar qarz oluvchi tomonidan qoplanadi.

1.6-jadval

XRA ning eng yirik qarzdorlari (2017-yil holatiga mln AQSh dollarida)²⁶

№	Mamlakatlar	Zahira qilingan mablag‘alr
1	Nigeriya	1601
2	Vyetnam	1512
3	Tanzaniya	1205
4	Bangladesh	1152
5	Efiopiya	903
6	Keniya	900
7	Yaman	783
8	Pokiston	736
9	Kot D‘iuvar	710
10	Nepal	640

Bu kreditlar rivojlangan mamlakatdan kambag‘al mamlakatga tovarlar eksportini rag‘batlantirish maqsadida beriladi. Hozirgi kunda XRAga 167 ta mamlakat a‘zo bo‘lib kirgan.

²⁶ www.worldbank.org ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2017-yil ma'lumotlariga ko'ra XRA ning eng yirik qarzdorlari Osiyo hamda Afrika mintaqasi mamlakatlari ekanligini yuqoridagi jadval (1.6-jadval) ko'rsatib turibdi. Nigeriya davlati eng yirik qarzdor hisoblanib ularning tashkilot oldidagi qarzi 2017-yilda 1,6 mlrd. AQSH dollariga yetgan. Shuningdek, Vyetnam, Tanzaniya, Efiopiya, Keniya, Yaman, Pokiston, Xotdiuvar, Nepal kabi davlatlari ham XRAning yirik qarzdorlari hisoblanadi.

1.7-jadval

XRA tomonidan sohalar bo'yicha ajratilgan mablag'lar

(mln. AQSh dollar)²⁷

№	Soha	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
1	Qishloq xo'jaligi, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi	2382	2525	1849	2025
2	Ta'lim	2426	2124	1431	1773
3	Energetika va qazilma	4438	1461	2814	1891
4	Moliya tizimi	669	661	443	1227
5	Sog'liqni saqlash	758	2197	1191	1246
6	Informatika va aloqalashtirish texnologiyalari	266	265	78	519
7	Davlat boshqaruvi sektori	2624	2744	1500	1954
8	Ijtimoiy himoya	1515	1928	2475	1913
9	Transport	3187	2191	2277	3271
10	Suv ta'minoti, quvurlarni tiklash va toshqindan himoyalash	3125	2183	1271	2102
11	Sanoat, savdo va xizmatlar	850	687	841	1541
	Jami	22239	18966	16170	19462

Yuqorida ma'lumotdan ko'rishimiz mumkinki, XRA tomonidan ajratilgan jami mablag'lar 2014-yilda 22239 mln AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2016-yilda 16170 mln AQSh dollarini tashkil qilgan, jami ajratilgan mablag'lar. 2016-yilda ajratilgan mablag'lar 2014-yilga nisbatan 6069 mln AQSh dollariga kamaygan. 2017-yilda 19462 mln AQSh dollarni tashkil etgan bo'lib, 2016-yilga nisbatan 3292 mln AQSh dollariga ortgan.

XRA moliyaviy resurslari quyidagilar hisobidan tashkil topadi:

²⁷ www.worldbank.org ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

- XTTB ga a'zo eng rivojlangan, shuningdek Quvayt, BAA ning konvertirlangan valutasini;

- Iqtisodiyoti kam rivojlangan davlatlardan olinadigan 10% konvertirlangan, 90% milliy valuta hisobiga badal to'lovlari.

Xalqaro moliya korporatsiyasi Jahon bankiga kiruvchi, birorta bankka tegishli bo'lmagan o'zining xususiy pul mablag'lariga ega bo'lgan tashkilot hisoblanadi. XMK 1956-yildan beri faoliyat olib boradi, rivojlanayotgan mamlakatlarga xususiy investitsiyalar oqimi barqarorligi ta'minlash maqsadida tuzilgan. U o'z boshqaruvchilariga, ishchilariga, pul mablag'lariga ega. XMK yuqori rentabelli xususiy korxonalariga hukumat tomonidan kafolatlanmagan kreditlarni beradi va xususiy sektorni rivojlantiradi. XMK Jahon bankiga kiruvchi boshqa tashkilotlar bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, lekin yuridik va moliyaviy aloqalarda mustaqil tashkilot hisoblanadi. XMK aksionerlari bo'lib 182 ta mamlakat hisoblanadi.

Moliyalashtirish manbai bo'lib XMKga a'zo davlatlarning a'zolik badali hamda foyda tushumi hisoblanadi. XMKga a'zo bo'lish uchun a'zligi hamda kelishuv moddasini imzolash kerak. XMK jahon kapital bozoriga chiqish uchun yangi moliyaviy instrumentlar ishlab chiqarmoqda. Moliyaviy instrumentlarga quyidagilar kiradi:

- XMK o'z mablag'laridan zayomlar;
- sindikatlashgan zayomlar;
- hissali moliyalashtirish;
- qarz instrumentlari va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar fondlari;
- tuzilmaviy moliyalashtirish
- vositachilik orqali moliyalashtirish;
- risklarni boshqarish bo'yicha magsulotlar;
- milliy valutada moliyalashtirish;
- savdoni moliyalashtirish
- ekspert baholash va b.

XMK turli xil tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtiradi, xususan, qishloq xo'jaligi, tog' sanoati, ishlab chiqarish, turizm va boshqalar. XMK faoliyatining to'rtta asosiy yo'nalishi mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish;
- rivojlanayotgan mamlakatlardagi tashkilotlarga xalqaro moliya bozorlaridan kapital jalb qilishda yordamlashish;
- ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalar yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, innovatsion moliyaviy mahsulotlardan foydalanish orqali ichki moliya bozorlarni rivojlantirish;
- hukumatga maslaxat va texnik yordam ko'rsatish.

XMK kreditlarining muddati 15-yil, o'rtacha muddat esa 3-7 yil hisoblanadi. Korporatsiya tomonidan qilinadigan investitsiya korporatsiyani shaxsiy kapitali orqali moliyalashtiriladi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot hisoblanadi. IKKA rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ridan to'g'ri investitsiya berish, shu masalada axborot va konsultatsiya berishni maqsadida tashkil etilgan. Shuningdek, IKKA siyosiy risklardan su'gurtalashni yoki rivojlanayotgan mamlakatlarga xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida kafolat berishni amalga oshiradi.

IKKA – 1988 yilda a'zo mamlakatlarning badallari evaziga tashkil topgan. Hozirgi kunda 2010 yil holatiga ko'ra IKKA ga 175 mamlakat a'zolikka qabul qilingan.²⁸ IKKA xalqaro tashkiloti to'g'risidagi konvensiya 1985-yil 11-oktabrda Vashingtonda imzolangan. Shtab kvartirasi Vashingtonda joylashgan.

IKKA kafolati investorlarni, shartnoma shartlarini buzishdagi, harbiy va fuqarolar g'alayonidagi, musodara qilishdagi hamda mablag'larni o'tkazishdagi cheklovlarda yuzaga keladigan risklarni himoya qiladi, shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida bo'ladigan investitsiya munosabatlarini ham su'gurtalaydi. Tijorat risklarini su'gurtalashni amalga oshirmaydi.

²⁸ www.worldbank.org ma'lumotlari

IKKA 3 yildan 15-20 yil muddatgacha kafolat beradi. IKKA kafolatiga mamlakatda ro'yxatdan o'tmagan faoliyati investitsiya bilan bo'g'liq xususiy firma va fuqarolarga ham berilishi mumkin. IKKA xalqaro tashkilotining Jahon bankidan farqli jihati, investitsiyalash uchun mamlakat hukumatidan qarshi kafolat talab qilinmaydi. IKKA asosiy faoliyati investitsiya bo'g'liq bo'lganligi uchun ham, kreditlar bermaydi hamda mustqail investor bo'lib hisoblanmaydi. Hozirgi kunda bir investitsiya loyihasi uchun 110 mln AQSh dollari hamda bitta mamlakat uchun 440 mln AQSh dollari miqdorida kafolatlashi mumkin.

IKKA notijorat risklarga kafolatlar berish bilan bir qatorda, rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumat organlariga siyosatni ishlab chiqish va amalgam oshirish uchun dastur va tartib yuzasidan maslaxat beradi. Shu bilan birga chet el investorlarini qo'llab quvvatlaydi.

Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz – Jahon banki guruhiga kiruvchi mustaqil xalqaro tashkilot, shu bilan birga BMT ning maxsus tashkiloti hisoblanadi. Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazning asosiy maqsadi xalqaro investitsion bahslarni hal qilish va tomonlarni murosaga keltirish uchun huquqiy imkoniyatlarni ta'minlash hisoblanadi. Bu xalqaro tashkilotga xususiy investitsiyalar yo'lidagi tashqi iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan hamda davlatlar va xususiy investorlar o'rtasidagi bahslarni hal qiluvchi xalqaro mustaqil arbitraj tashkiloti sifatida qaraladi.

Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz, davlatlar va boshqa davlatlarning fuqarolari o'rtasidagi investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha konvensiyaga muvofiq tashkil etilgan. Ushbu konvensiya Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazning haq-huquqlarini, tashkiliy tuzilmasini va asosiy vazifalarini belgilab berdi. Konvensiya 1965-yil 18-martda imzolangan va 1966-yil 14-oktyabrdan kuchga kirgan. Hozirgi kunda Investitsion bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markazning a'zolari 146 ta mamlakat hisoblanadi.²⁹ Markazda tomonlarga xizmat ko'rsatish ixtiyoriy va to'lov evaziga amalgam oshiriladi. To'lovlar miqdori bosh kotib tomonidan tasdiqlanadi.

²⁹ <http://icsid.worldbank.org> ma'lumotlari

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Xalqaro moliya tashkilotlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan bir qancha omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

1. Insonlar hayotining bir-biriga bog'liqligining yanada o'sishi;
2. Sanoat revolutsiyasi va ilmiy yutuqlar insonlarning bir-biridan ajratib turgan masofalarni qisqartirish va xalqaro munosabat va hamkorlikni kengaytirishi;
3. Savdo, valuta-moliya munosabatlari kapital bozori umuman iqtisodiy o'sish;
4. Davlatlarning barcha sohada bir-birlariga bog'liqligining o'sishi;
5. Dunyodagi umumiy resurslardan oqilona foydalanishning zarurligini chuqurroq anglash.

Xalqaro moliya tashkilotlarining faoliyati jahon xo'jaligining barqarorligiga erishishga hamda valuta-kredit sohasidagi muno- sabatlarning uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi. Eng avvalo, bunga bo'lgan zaruriyat davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar ko'lamining ortib borishi, shuningdek, ularning o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ular mam- lakatlar va davlatlar o'rtasida hamkorlikni tashkil etish uchun forum sifatida xizmat qilishga ham yo'naltirilgan.

Xalqaro moliya tashkilotlarida qatnashish darajasi va alohida mamlakatlarning ta'siri ularning kapitaldagi bo'nagining miqdori bilan aniqlanadi. Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi muayyan darajada a'zo mamlakatlarning hukumati va davlat tashkilotlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko'p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo'yicha risklarni boshqarish va sug'urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN HAMKORLIGI HOLATI TAHLILI

2.1. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida hamkorlikning amaldagi holati tahlili

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach erkin ochiq bozor iqtisodiyotini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni barpo etish yillari sifatida munosib tarixiy voqelikka aylandi. Shuningdek, mamlakatimizda barqaror bank tizimi yaratilishi bilan xalqaro moliyaviy munosabatlar ko‘lami yanada kengayib bordi, bu holat o‘z navbatida xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik aloqalari rivojlanishiga qulay shart-sharoitlar yaratdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlari o‘rtasida bir qator samarali loyihalar amalga oshirilmoqda, bu esa respublikamiz iqtisodiyotining taraqqiy etishida mustahkam rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlarning amaliy aloqalariga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, ulardan Xalqaro Valuta Fondi (XVF), Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (YTTB), Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) kabi yirik moliyaviy tashkilotlar bilan juda izchil va faol ishlar olib borilmoqda. Mazkur tashkilotlar biz tanlagan yo‘l va amalga oshirilayotgan islohotlarning to‘g‘ri ekanligiga qat’iy ishonch hosil qilganliklari uchun ham yaqin hamkorlik aloqalarini olib bormoqdalar.

1992-yil 21-sentabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jahon bankining a‘zosi hisoblanadi. Uning oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun 12,1 mln. AQSh dollari miqdorida badal to‘lagan. O‘zbekistonda XTTB tomonidan 2493 aksiya chiqarildi, ovozlar esa 2743ni tashkil etdi. 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro valuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqararo taraqqiyot asotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlikda O‘zbekiston Respublikasining a‘zoli to‘g‘risida” gi qonuni kuchga kirdi.

Respublikamizda mazkur tashkilotlar mablagʻlarni jalb qilish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni tartibga solish, litsenziyalash, kvota berish hamda turli xil ruxsat beruvchi shakllardan voz kechildi va ularning soni qisqartirildi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biri hisoblangan valuta siyosatini erkinlashtirishga va CVF Moddalar Bitimining VIII moddasi talablariga muvofiq joriy valuta operatsiyalar boʻyicha milliy valutamizning toliq konverttsiyalanishiga erishildi.

XTTB va XTA Oʻzbekiston Respublikasiga 13 ta loyiha boʻyicha 599 mln. AQSH dollari miqdorida imtiyozli kredit hamda 2,40 mln. AQSH dollari miqdorida grant mablagʻlari ajratgan. Ushbu loyihalarning 3 tasi, yaʼni 247 mln. AQSH dollariga teng boʻlgan kreditlar respublikamiz tomonidan toʻlaligicha oʻzlashtirilib boʻlingan va yopilgan.

Oʻzbekistonning Jahon Banki bilan hamkorligi

1992-yil sentabr oyidan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Jahon bankining teng huquqli aʼzosi hisoblanadi. 1992-yil 2-iyulda «Oʻzbekiston Respublikasining Xalqaro valuta fondi, Rekonstruksiyalash va rivojlanish xalqaro banki, Rivojlanish xalqaro assosiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Koʻp tomonlama sarmoya ajratishni kafolatlovchi agentlikka aʼzoli toʻgʻrisida»gi Qonuni kuchga kirdi.

Oʻzbekiston Jahon bankiga aʼzo boʻlganda uning oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun 12,1 mln. AQSH dollari miqdorda badal toʻladi. Oʻzbekitonda XTTB tomonidan 2493 aksiya (jami aksiyalar miqdorining 0.17 foizi) chiqarildi, ovozlar esa 2743 (0.18 foiz)ni tashkil etdi.

Oʻzbekiston mazkur moliya tashkilotining mablagʻlarini jalb etishdan manfaatdordir, bu esa oʻz navbatida, mamlakatimizda moliya-kredit tizimini barqaror shakllanishi uchun zarur shart sharoitlar yaratilishini talab qiladi.

1992-yil sentabrda Toshkentda Jahon Bankining vakolatxonasi ochildi. Jahon bankining mamlakatimizdagi asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat:

1. Bozor strukturasi shakllanishida texnik yordam koʻrsatish;
2. Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarni rivojlantish boʻyicha loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy jihatdan koʻmak berish;

3. Mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayorlash.

Jahon banki O‘zbekiston Respublikasida o‘zining asosiy maqsadlari qilib quyidagilarni belgilab olgan:

▶ Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini mustahkamlash hamda uning infratuzilmasini zamonaviylashtirishda moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan birga xalq turmush darajasini oshirishda o‘zining maslahatlarini berish;

▶ O‘zbekiston taraqqiyot yo‘nalishini belgilashda uning hukumati hamda xalqi bilan hamkorlikda boshqa davlatlarning bilim va tajribalaridan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Jahon banki bilan joriy hamkorlik Bankning O‘zbekiston Respublikasi bilan 2016-2020-yillar oralig‘idagi hamkorlik strategiyasiga asoslangan bo‘lib, qiymati 4 milliard dollar bo‘lgan (3,0 milliard dollari - Jahon banki qarzi) jami 27 investitsiya loyihalarini o‘z ichiga olgan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining imtiyozli kreditlari va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kreditlarini nazarda tutadi.


Bugungi kunda mamlakatimizda Jahon banki bilan hamkorlikda quyidagi loyihalarni amalga oshirilmoqda:

- qishloq xo‘jaligi korxonalarini qo‘llab-quvvatlash loyohasi;
- irrigatsiya infratuzulmalari va drenajlarni rekonstruksiya qilish loyihasi;
- maktab ta‘limini rivojlantirish loyihasi;
- Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish loyihasi;
- Samarqand va Buxoro shaharlarida quvurlar tizimi va tozalash inshootlarini rekonstruksiya qilish loyihasi;
- sanoat korxonalarida enegiya samaradorligini oshirish loyihasi;
- Sirdaryo viloyatida suv ta‘minotini yaxshilash loyihasi;
- Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi qurilish loyihasi;
- sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiyalash loyihasi;
- elektr energiyasidan foydalanishni nazorat qilish va hisoblashning avtomatlashgan tizimini joriy etish loyihasi;

- Olot va Qorako‘l tumanlarida suv ta‘minotini yaxshilash loyihasi va boshqalar.

Mamlakatimiz, bugungi kunga qadar Jahon banki O‘zbekiston bilan 28 loyihani moliyalashtirish majburiyatini olgan. Mazkur loyihalar XTTB va XTA tomonidan amalga oshiriladi va 30 grant texnik yordam dasturi asosida amalga oshiriladi. Shundan 16 ta loyiha va 28 ta grant loyihalar tugatilgan.

Quyidagi jadvalda Jahon bankining mamlakatimizga ajratgan mablag‘larini ko‘rishimiz mumkin (2.1-rasm).



2.1-rasm. Jahon bankining 2014-2018-yillarda ajratgan mablag‘lari (mln. AQSH dollar).³⁰

Yuqoridagi ma‘lumotdan ko‘rishimiz mumkinki, Jahon bankining mamlakatimizga ajratgan mablag‘lari ortib bormoqda. 2016-yilda 63 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratgan bo‘lsa, 2017-yilda deyarli 6 barobarga ortgan, 2018-yilda esa 940 mln AQSh dollari miqdorida rejalashtirilgan.

Jahon banki tomonidan hamkorlikda bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda (2.1-jadval).

³⁰ www.worldbank.org – Jahon bankining rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2.1-jadval

Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar³¹

№	Loyiha	Umumiy loyiha qiymati (mln. AQSh dollar)	Ajratilgan mablag' (mln. AQSh dollar)	Muddati
1	Shoshilinch tibbiy yordam	100	100	25.04.018-08.2024
2	Bog'dorchilikni rivojlanishi	637,44	500	Muddatsiz
3	Sanoat korxonalarini uchun energiya samaradorligini oshirish	332,50	200	30.01.2018
4	Issiqlik energiyasini rivojlanishi	140	140	30.06.2017 31.05.2024
5	Farg'ona vodiysi suv resurslarini boshqarish	225	144,9	30.06.2017 31.08.2024
6	Chorvachilik tarmog'i	236,50	150	23.06.2017 30.06.2022
7	Yer boshqaruvini ta'minlash va geografik joylashuv tizimini modernizatsiya qilish	1,5	1,5	05.01.2017 31.01.2019
8	Yetkazib beruvchi podstantsiyalarni modernizatsiya qilish	196,30	150	23.11.2016 31.12.2022
9	Ko'chmas mulkni ro'yxatga olish tizimini modernizatsiyalash	25	20	24.05.2016
10	Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash	50	42,2	27.04.2016
11	Ijtimoiy va bandlik xizmatlari uchun yagona oyna bo'linmasi xizmati	0,55	0,55	26.08.2015 29.06.2018
12	Hududiy yo'llar rivojlanishi	240	200	23.06.2015 30.09.2021
13	POP-Angren, Buxoro-Samarqand kanalizatsiyasini qayta moliyalash	105	105	23.06.2015
14	Pop-Angren temir yo'li	1633,75	195	13.02.2015 31.03.2019
15	Boshlang'ich va o'rta maxsus ta'lim tizimini yaxshilash	49,9	49,9	23.09.2014 31.07.2019
16	Janubiy Qoraqalpog'ston suv resurslari boshqaruvi rivojlanishi	337,43	260,79	12.06.2014 13.09.2021
17	Bo'g'dorchilik	183,13	150	12.06.2014 30.06.2023

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning Jahon banki bilan 2014-2018 yillar davomida turli sohalarga mablag'lar jalb etish maqsadida ko'plab shartnomalar tuzilgan. Bog'dorchilikni rivojlanishi hamda Pop-Angren temir yo'li loyihalariga yirik miqdorda mablag'lar jalb etishni ko'zlagan

³¹www.worldbank.org Jahon bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

hamkorlikdagi shartnomalar tuzilgan. Shuningdek, boshqa loyihalarga ham yirik miqdorda mablag‘lar jalb etish ko‘zlangan shartnomalar tuzilgan hamda ularning bajrilish muddati uzoq yillarga mo‘ljallangan.

Shu bilan bir qatorda Jahon banki hozirgi kunda quyidagi loyihalarni amalga oshirish maqsadida mablag‘ ajratmoqda:

- Jizzax shahrida kanalizatsiya tizimini rivojlantish. Bu loyihaga 4 mln AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan bo‘lib, mablag‘ Jizzax viloyati hokimiyatiga va “O‘zkommunxizmat” tashkilotiga ajratilgan, loyiha muddati 2016-2020 yillarni o‘z ichiga olgan.

- Surxandaryo, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona, Andijon viloyatlarida elektr energiyasidan foydalanish hisobini yuritish va nazorat qilish tizimini yaratish. Loyiha summasi 300 mln AQSh dollari, muddati 2016-2019-yillar, mablag‘ “O‘zbekenergo” OAJ tashkilotiga ajratilgan.

- Guzar-Buxoro-Nukus-Baynov A-380 avtomobil yo‘lini 228-315 km ni ta‘mirlash. Mablag‘ Respublika yo‘l fondiga ajratilgan bo‘lib, summasi 150 mln AQSh dollarini tashkil qiladi, muddati esa 2016-2020-yillarni o‘z ichiga oladi.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Loyiha summasi 100 mln AQSh dollari bo‘lib, Moliya vazirligiga ajratilgan. Muddati 2016-2021 yillar.

- Toshkent viloyati shahar va tumanlarida kanalizatsiya hamda suv ta‘minoti tizimida qurilish va qayta ta‘mirlash. Mablag‘ “O‘zkommunxizmat” tashkilotiga ajratilgan, loyiha summasi 86,54 mln AQSh dollari, muddati 2016-2021 yillarni o‘z ichiga oladi.

- Qarshi-Shahrisabz-Kitob yo‘nalishidagi avtomobil yo‘lini qayta ta‘mirlash. Loyiha uchun ajratilgan mablag‘ Respublika yo‘l fondiga berilgan, loyiha summasi 198 mln AQSh dollarida bo‘lib, muddati 2016-2021 yillarni o‘z ichiga oladi.

- Pop-Namangan-Andijon temi yo‘lini elektrlashtirish. Loyiha muddati 2017-2021 yillarni o‘z ichiga oladi. Summasi 80 mln AQSh dollarida, mablag‘ O‘zbekiston Temir yo‘llari hamda O‘zbekenergo tashkilotiga ajratilgan.

- Qishloq hududlarida yangi projektlarga asosan uylarni qurish. Bu loyiha Iqtisodiyot Vazirligi bilan amalga oshiriladi, muddati 2017-2021 yillar, summasi 500 mln AQSh dollarini tashkil qiladi.

- Taxiatosh GESda elektr energiya ishlab chiqaruvchi stansiya qurish. Loyiha muddati 2015-2021 yillarni o'z ichiga oladi, summasi 300 mln AQSh dollarini tashkil etadi. "O'zbekenergo" tashkiloti bilan birgalikda amalga oshiriladi.

- Xorazm aholi punktlarida Taxiatosh GES LEP 220 kv qurilishi. Bu loyiha 150 mln AQSh dollarini tashkil etadi, muddati 2016-2019 yillar. Ushbu loyihani amalgam oshirish uchun mablag' "O'zbekenergo" tashkilotiga ajratilgan.

O'zbekistonning Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) bilan hamkorligi

Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridagi rivojlanish loyihalarini uzoq muddatli kreditlar ajratish bilan shug'ullanadigan yirik xalqaro moliya institutlaridan biri hisoblanadi. Tashkilot 1966-yil 22-avgustda dastlab 15 ta mamlakat tomonidan shartnoma imzolanishi bilan tashkil etilgan bo'lib, shtab-kvartirasi Manilada (Filippin) joylashgan. OTB prezidenti 5 yil muddatga saylanadi. Bank o'z kredit faoliyatini 1966-yil 19-dekabrda boshlagan. Bankni tuzishdan maqsad esa Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishdan iborat bo'lgan.

OTBning asosiy maqsadi – Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'maklashishdir. OTB osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojiga va hamkorligiga ko'maklashish, davlat va xususiy fondlardan kapital qo'yilmalarning o'sishini ta'minlash, hududiy savdoning rivojlanishiga olib keluvchi iqtisodiy rejalarni tartibga solishda ishtirok etish, tashqi manbalardan moliyalashtiriladigan loyihalarni tayyorlash va bajarishga texnik yordam berish, a'zo mamlakatlarning tashqi savdosiga va iqtisodiy rivojlanishiga yordam berish kabi asosiy vazifalarni bajaradi. Shuningdek, mazkur tashkilotning quyidagi 4ta strategik vazifalari mavjud:

1. Uzoq sharq va Osiyo hududida hamkorlik va iqtisodiy o‘shiga ko‘maklashish;

2. Kambag‘allik darajasini pasaytirish;

3. Inson resurslarini rivojlantirish;

4. Tabiatdan foydalanishda ratsional ta‘minlash.

OTB ustaviga binoan Bank tizimiga kiruvchi bir nechta maxsus fondlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- Imtiyozli shartlarda uzoq muddatli kreditlash maxsus fondi;

- Osiyo rivojlanish fondi;

- Texnika yordami maxsus fondi.

OTB rivojlanayotgan mamlakatlarga mazkur fondlar hisobidan quyidagicha kreditlar ajratadi:

- Oddiy fond hisobidan tijorat shartlari asosida 25 yil muddatga;

- Osiyo rivojlanish maxsus fondi hisobidan imtiyozli 1-3% stavkalar bo‘yicha qoloq davlatlarga 40 yilgacha muddatga

O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil avgust oyida OTBning a‘zosi bo‘lgan. 1997-yilda Toshkentda OTB vakolatxonasi ochildi. Vakolatxona rahbari – T.Konishi.

O‘zbekistonda OTB bilan birgalikda amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar 4 asosiy tarmoqlarni o‘zida birlashtirgan: qishloq xo‘jaligi, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, transport va bojxona tranziti sohasida mintaqaviy hamkorlik, bolalar himoyasi va boshlang‘ich ta‘limni egallashga qaratilgan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish.

2010-yilning 1-4-may kunlari Toshkent shahrida OTB Boshqaruvchilar kengashining 43-majlisi o‘tkazildi, unda 2,3 ming kishi atrofida ishtirok etib, ularning 1,3 mingdan ortig‘i xorijiy vakillar bo‘ldi. Ushbu tadbir OTB ning Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida o‘tkazgan birinchi yig‘ilishi bo‘ldi. Yana shuni qayd etib o‘tish kerakki, OTB 2019-yilda bankka a‘zo davlatlar va moliya vazirlari uchrashuvini o‘tkazishni rejalashtirmoqda. Ushbu uchrashuv ham yana bir

bor mamlakatimiz poytaxti Toshkentda o'tkazilishi rejalashtirilgan.³²

2012-yil sentabrda, OTB O'zbekiston Respublikasi bilan 2012-2016-yillarga mo'ljallangan mamlakat bilan hamkorlik strategiyasini (MHS) qabul qildi. Yuqoridagi strategiya O'zbekistonda infratuzilma rivoji va sanoatni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun qaratilgan 2013-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining farovonligini oshirish strategiyasi bilan muvofiqlashtirildi. MHSda asosiy e'tibor shahar infratuzilmasi va uy-joy xizmatlari, kommunikatsiya, energetika, suv tarmoqlari va transport rivojini qo'llab-quvvatlashga va moliyaviy xizmatlar imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan.

2014-yilda OTB O'zbekistonda energiyaga nisbatan o'sib borayotgan talabni qondirish, samarali energiya quvvatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida 300 mln. AQSh dollar miqdorida zayom ajratdi. Osiyo taraqqiyot fondi va boshqa maxsus fondlar, oddiy kapital resurslaridan moliyalashtiriladigan O'zbekistondagi grant loyihalari va zayomlar bo'yicha o'zlashtirilgan mablag'larning umumiy yig'indisi 2,01 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi.

O'tgan muddat ichida, OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSh dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSh dollarini o'z ichiga olgan umumiy miqdori 4,1 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 54 zayomni ajratdi.

O'zbekiston OTB ning 23834 ta aksiyasiga va 37 066 ta ovozga ega. 1977 yildan buyon Toshkentda OTB vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda. Ozbekiston Respublikasi OTB ning mintaqaviy a'zolari orasida 15 yirik aksioner va 14-yirik kreditor hisoblanadi.


Osiyo Taraqqiyot Banki asosan o'z kreditlarini texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishchi kapital xarajatlarini qisman qoplashga, qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan sub loyihalarni moliyalashtirishga beriladi. Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib asosan

³² www.adb.org OTB rasmiy sayti malumotlari asosida muallif tomonidan qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki hisoblanadi. Subqarz oluvchi bo‘lib xususiy, kichik va o‘rta korxonalar bo‘lishi mumkin. Kredit olish uchun loyiha export va import o‘rnini bosadiga mahsulot ishlab chiqarilishi va valutada o‘zini qoplashi kerak.

2.2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2017-yilda OTB ning mamlakatimizga ajratgan mablag‘lari sezilarli darajada ortgan. 2015-yilda OTB ning qarz mablag‘lari 505,36 mln AQSh dollari bo‘lgan bo‘lsa, 2016-yilda 508,01 mln AQSh dollarini tashkil etgan. 2017-yilga kelib esa 40,13 mln AQSh dollariga ortgan. OTB ning grant mablag‘lari 2017-yilda 2015-yilga nisbatan 0,5 mln AQSh dollariga ortgan.

OTB ning mamlakatimizga ajratgan texnik yordami esa 2017-yilda 6,79 mln AQSh dollarini tashkil etgan, 2015-yilga nisbatan 2,06 mln AQSh dollariga ko‘p.



2.2-rasm. OTBning 2015-2017-yillarda O‘zbekistonga ajratgan mablag‘lari (mln AQSh dollar).³³

Osiyo Taraqqiyot Bankining kreditini olish qarz oluvchi loyihada qiymatning kamida 25 foizga o‘z mablag‘lariga ega bo‘lishi kerak. Qarz oluvchi ta’minot sifatida – bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonidan olinadigan aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlari qoplash uchun

³³ www.adb.org OTBning rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak. Garov ta'minoti sharti olinayotgan kredit summasining 120%dan kam bo'lmasligi kerak.

Taqdim etilayotgan kredit uchun foiz stavkasi quyidagicha bo'ladi:

Osiyo Taraqqiyot Banki foiz stavkasi + O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milly Banki marjasi.

Milliy bank marjasi subloyihalarni baholash qiymatidan kelib chiqib kredit summasining 0,5%-3% gacha tashkil etadi. Kredirni boshqarganlik uchun komission haq – kredit summasining yillik 0,15 foiz miqdorida (so'mda) to'lanadi. Asosiy qarzni qaytarish har 6 oyda amalga oshiriladi.

2.2-jadval

O'zbekistonning OTB bilan hamkorlikdagi loyihalarining tahlili³⁴

Tavsiya etilgan	Tasdiqlangan/ amalga oshirilayotgan
Ikkilamchi quyosh energiyasi loyihasi: Grant: 2 mln. AQSh dollari Qarz: 100 mln. AQSh dollari	G'arbiy O'zbekiston suv ta'minoti tizimini rivojlantirish loyihasi Qarz: 145 mln. AQSh dollari
Bog'dorchilikning infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi Qarz: 197 mln. AQSh dollari	Iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirish dasturi Texnik ko'mak: 1 mln. AQSh dollari
Toshkent viloyatidagi ikkilamchi suv ta'minoti loyihasi Qarz: 143 mln. AQSh dollari	Loyihalarni boshqarish bo'yicha salohiyatni oshirish dasturi Texnik ko'mak: 225 000 AQSh dollari
Temir yo'l samaradorligini oshirish loyihasi Qarz: 170 mln. AQSh dollari	Ipoteka bozorini rivojlantirish dasturi Texnik ko'mak: 225 000 AQSh dollari
Bog'dorchilikning infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi (Qo'shimcha moliyalashtirish) Qarz: 198 mln. AQSh dollari	Suv va sanitariya strategiyasini ishlab chiqish va salohiyatni oshirish Texnik ko'mak: 200 000 AQSh dollari

³⁴ <https://www.adb.org> . OTB ning rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan tuzildi.

Hozirga kelib O'zbekiston OTB bilan hamkorlikda bir qator loyihalarni moliyalashtirgan va bir nechta loyihalar OTB ham tavsiya etilgan bo'lib, katta ehtimollik bilan ularning amalga oshirilishi kutilmoqda (2.2-jadval).

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki OTB O'zbekistonga nafaqat qarz, balki turli xil grantlar hamda texnik ko'maklar ham ko'rsatgan, shu bilan bir qatorda yaqin 10 yillikda bir nechta loyihalarni hamkorlikda amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Xususan, ikkilamchi quyosh energiyasi loyihasining maqsadida O'zbekistonning chekka hududlarini ham elektr energiyasi bilan ta'minlash hisoblanadi. Bunda moliyalashtirish manbai ikkita ya'ni grant hamda qarz mablag'i hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda boshqa bir qator loyihalar ya'ni bog'dorchilikni rivojlantirish, Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligi uchun suv ta'minoti yaxshilash bo'yicha loyiha ham yuqori samara keltirishi kutilmoqda.

Mamlakatimiz va OTB o'rtasidagi amaliy aloqalar yildan yilga mustahkamlanib borayotganligini bank prezidenti Takexiko Nakaoning 2017-yilda mamlakatimizga qilgan tashrifidan ham bilishimiz mumkin. Bank rahbari mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bilan uchrashdi hamda o'zaro aloqalarni yanada rivojlantirish ya'ni 2017-2019-yillar davomida mo'ljallangan qo'shma dastur doirasida muhokamalar olib borildi.³⁵ Mazkur uchrashuv davomida bugungi kungda hamkorlik portfeli umumiy qiymati 14 mlrd. AQSH dollaridan ziyodni tashkil etuvchi 59 loyihani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni moliyalashtirish uchun bankning 6 mlrd. AQSH dollaridan ko'proq mablag' jalb qilinganligi alohida qayd etib o'tilgan.

O'zbekistonning Yevropa Taraqqiyot va tiklanish banki bilan hamkorligi.

O'zbekiston 1992-yil 30-aprelda YTTB a'zosiga aylandi. 1993-yilning may oyida Toshkent shaxrida uning vakolatxonasi ochildi. Respublikada bank faoliyatini o'rta osiyo bo'yicha YTTB direktori M. Honma muvofiqlashtiradi.

Uning asosiy vazifasi bank xususiy tadbirkorlik sohasida bozor islohotlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mamlakatda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishdan iborat.

³⁵ www.uza.uz ma'lumotlari keltirib o'tildi.

Bank o'zining so'nggi strategiyasini amalga oshirish uchun (2005-yildan buyon) 105 million evro miqdorida 21 ta loyihani imzoladi hamda 2,6 mln evro miqdorida 17 ta loyihaga texnik yordam ko'rsatdi.

2017-yil mart oyida O'zbekiston va YTTB o'rtasida bank Anglashuv memorandumi imzolandi. Bu hujjat Bank mablag'larini jalb etish hisobiga mamlakatda loyihalarni amalga oshirish uchun hadli hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Kelajakda o'rta muddatda O'zbekiston uchun YTTBning yangi strategiyasi qabul qilinishi kutilmoqda.

O'zbekistonning Xalqaro Valuta Fondi bilan hamkorligi.

Xalqaro Valuta fondi, XVF (ing. International Monetary Fund, IMF) – Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) ixtisoslashgan tashkilotlaridan bo'lib, shtab-kvartirasi AQShning Vashington shahrida joylashgan. 1944-yil 22-iyulda BMTning valuta-moliya masalalari bo'yicha Bretton-Vudsdagi konferensiya yozida XVF bitimining asosi ishlab chiqildi. XVF tashkil topgan rasmiy sana – 1945-yil 27-dekabr bo'lib, bunda bitimning oxirgi varianti 29 ta davlat tomonidan imzolandi. XVF o'z faoliyatini 1947-yil 1-martdan Bretton-Vuds tizimining bir qismi sifatida boshladi. Shu yili Fransiya birinchi kreditni oldi. Hozirgi kunda XVF 186 davlatni birlashtirib, uning tuzilmasida 133 mamlakatdan 2500 mutaxassis ishlaydi.

XVF – a'zo davlatlar o'rtasida valuta-kredit munosabatlari ni tartibga solish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valutasida qisqa va o'rta muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilotdir.

XVF Kelishuvlar moddalarining birinchi moddasiga muvofiq, uning maqsadlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- xalqaro valutaviy muammolarni bartaraf etish borasida maslahatlar va hamjihatlik mexanizmini ta'minlovchi doimiy institut orqali xalqaro valutaviy hamkorlikni rag'batlantirish;

- xalqaro savdoning kengayishi va muvozanatli o'sishini qo'llab-quvvatlash va shu orqali bandlik hamda real daromadlarning yetarlicha yuqori darajasini

ushlab turish va iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi sifatida barcha a'zo davlatlar resurslarining samaradorligini oshirishga hissa qo'shish;

- a'zo davlatlar o'rtasida joriy bitimlarga doir ko'p tomonlama to'lovlar tizimini tashkil etish va jahon savdosi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi valuta ayirboshlashdagi cheklovlarni bekor qilishga ko'maklashish;

- a'zolarining umumiy resurslari hisobidan yetarlicha xavfsiz asosda mablag' bilan ta'minlash orqali ularning ishonchini qozonish va shuning asosida ularga to'lov balansidagi nomuvofiqliklar (tartibsizliklar)ni milliy yoki xalqaro taraqqiyotga g'ov bo'ladigan chora-tadbirlarsiz to'g'rilash imkonini berish;

- yuqoridagilarga muvofiq a'zo davlatlarning xalqaro to'lovlar balanslaridagi nomuvofiqlik (muvozanatsizlik)larning davomiyligini qisqartirish va uning darajasini pasaytirish.

XVF ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida SDRni ularning kvotalariga proporsional miqdorda taqsimlaydi. SDRning jahon valuta tizimida zarur bo'lgan umumiy miqdorini belgilash va bu miqdorni oshirish masalalari faqat XVF vakolatlariga kiradi. SDRni taqsimlash to'g'risidagi qaror besh yilgacha davomiylikdagi davrga qabul qilinadi va bunda inflyatsiya va ortiqcha talabni, shuningdek, iqtisodiy turg'unlikni oldini olish uchun mavjud zaxira aktivlarini to'ldirishga bo'lgan jahon iqtisodiyotining uzoq muddatli ehtiyoji hisobga olinadi. SDRni yangidan taqsimlash to'g'risidagi taklif XVFning taqsimlovchi-direktorlari tomonidan Ijroiya kengashning roziligi bilan kiritiladi va uni Boshqaruvchilar kengashi tasdiqlaydi.

XVF faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- jahon valuta tizimini nazorat qilish;
- pul siyosatidagi xalqaro hamkorlikka yordam berish;
- jahon savdosini kengaytirish;
- XVF a'zolarini kreditlash;
- valuta ayirboshlash kurslarini barqarorlashtirish;
- debitor mamlakatlarga maslahatlar berish;
- SDR chiqarish orqali likvid mablag'larni yaratish;

- iqtisodiy siyosat va texnik yordam sohasida tavsiyalar ishlab chiqish.
- xalqaro moliya statistikasi standartlarini ishlab chiqish;
- xalqaro moliya statistikasi to'plamlarini e'lon qilish.

O'zbekiston Respublikasi XVFGa 1992-yil 21-sentabrda a'zo bo'ldi. 1993-yilda Toshkentda XVF vakolatxonasi ochildi.

Xalqaro valuta fondi bilan hamkorlik asosan moliyaviy sektorni rivojlantirish va makroiqtisodiy islohotlarning targ'ibiga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi va XVF o'rtasidagi kelishuvning IV bandiga binoan, XVF vakillari doimiy ravishda O'zbekistonga tashrif buyurib, hukumat va Markaziy bank bilan maslahatlar olib borishadi.

Missiya faoliyati maqsadi iqtisodiyot sohasidagi ishlar ahvolini o'rganish, moliyaviy sektor va statistika, shuningdek iqtisodiy islohotlarning maydonlarni aniqlash. So'nggi yillarda, XVF turli sohalarda texnik ko'mak taqdim etdi. Ulardan biri bank sektorida korporativ boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha Markaziy bankni undashdir.

2014-yilda korporativ boshqaruvni yaxshilash uchun XVF texnik yordami taqdim etildi. Yordam doirasida Fond mutaxassisleri O'zbekistonga tashrif buyurdi, mamlakatimiz Markaziy banki vakillari va yetakchi banklari bilan hamkorlikda bu missiyaning uchrashuvlari tashkil etildi, respublika tijorat banklarida korporativ boshqarishni takomillashtirish uchun tavsiyalarni tayyorlash hisobga olib o'z fikr va takliflarini qabul qildi. Natijada, korporativ boshqaruv to'g'risidagi nizom so'nggi xalqaro standartlar, shuningdek korporativ boshqaruv bo'yicha Bazel qo'mitasi tamoyillari (2010-oktabr) va "tavakkallarni boshqarish" tematik sharhi Moliyaviy Barqarorlik Kengashi (2013-yil fevral) tavsiyalariga muvofiq qayta ko'rib chiqildi.

2016-yil aprel oyida ish stress-test tijorat banklari metodologiyasini takomillashtirish, texnik yordam doirasida boshlandi.

Shuningdek, 2017 yil sentabr oyida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev AQShga qilgan tashriflari davomida Prezidentimiz va Xalqaro valuta fondi farmoyish beruvchi direktori bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlik

masalalariga bag'ishlangan uchrashuv tashkil qilindi. Mazkur uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi va XVF bilan 2017-2021-yillarda hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-Ovqat va Qishloq Xo'jaligi Tashkiloti (FAO) Hamkorligi

O'zbekiston 2011-yil 2-oktabrda FAO a'zosi bo'ldi.

Institutsional hamkorlik FAO bilan o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi mas'ul organ – Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilot vakillari texnik loyihalarni amalga oshirish doirasida bir necha marta O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurganlar.

FAO bilan munosabatlarni rivojlantirish masalalari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga yuklatilgan. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi vakillari FAO tomonidan qishloq xo'jaligidagi hosildorlikni oshirish, turli transchegaraviy hayvon kasalliklarini tarqalishiga to'sqinlik qilish, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha salohiyatni oshirish maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok etishmoqda.

FAOning O'zbekistonga ko'rsatayotgan texnik ko'magi quyidagilardan iborat:

- sabzovot urug'larini ishlab chiqarish dasturini rivojlantirish;
- o'rmon xo'jaligining yog'och bo'lmagan mahsulotlar sektorini qo'llab-quvvatlash milliy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- kam suv sarflaydigan texnologiyalarni Podshoota daryosining sayoz joylariga joriy qilish;
- baliq ovlash va yem-xashak tayyorlash jarayonini tashkillashtirishga ko'mak ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi innovatsion tizimlarini tahlil qilish va takomillashtirish salohiyatini rivojlantirish;
- sug'oriladigan maydonlarda kam resurs sarflaydigan texnologiyalarni joriy etish;

- baliqchilik va suv xo‘jaligi madaniyatlarini rivojlantirish;
- pestitsidlarni nazorat qilish va qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurashish;
- chigirtkalar bosqiniga qarshi kurashish;
- yuqori-patogen qush gripini nazorat qilish va uni yo‘q qilish;
- transchegaraviy hayvon kasalliklarini nazorat qilish.

FAO bilan hamkorlik doirasida O‘zbekistonda 1,5 million AQSH dollari miqdorida qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston tashkilotning mintaqaviy loyihalari bilan ishlashda faol ishtirok etmoqda (ularning umumiy summasi taxminan 6,9 million AQSh dollarini tashkil etadi).

2014-yilning 4-6-iyun kunlari FAO Bosh direktori Joze Gratsiano da Silva O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Toshkent shahrida Tashkilotning vakolatxonasi ochilishi haqida Shartnoma imzolandi.


2014-yil 28-avgustda FAOning «O‘zbekiston uchun FAO Doiraviy hamkorlik dasturi» imzolandi.

2015-yil 15-19-mart kunlari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirining o‘rinbosari Y. Hidirov boshchiligidagi respublika delegatsiyasi Anqaradagi Markaziy Osiyo bo‘yicha FAOning submintaqaviy idorasiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida bir qator loyihaviy shartnomalar imzolandi.

2.2. Xalqaro moliya tashkilotlaridan mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan kreditlar tahlili

Xalqaro moliya institutlariga a‘zo har bir rivojlanayotgan mamlakat o‘z iqtisodiy hamda ijtimoiy holatini yaxshilash maqsadida turli xil kreditlarni jalb qiladi, shu jumladan O‘zbekiston ham. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasiga jalb qilinayotgan kreditlar miqdori sezilarlicha bo‘lib, ushbu kreditlarning barchasi maqsadli tarzda yo‘naltirilayotganligi yaqin yillarda yurtimiz iqtisodiyotida o‘sish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishidan dalolat beradi. Xususan O‘zbekiston Respublikasiga Jahon banki tomonidan 40 dan ortiq

loyihalar uchun kreditlar ajratilgan bo‘lib, ularning ayrimlarini tahlil qilamiz.




2.3-rasm. Yillar bo‘yicha Jahon Banki tomonidan amalga oshirilgan loyihalar umumiy miqdori (mln. AQSh dollari) va soni dinamikasi.³⁶

2.3-rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak 1994 yildan boshlab hozirga qadar 40 dan ortiq loyihalar o‘zaro hamkorlik asosida moliyalashtirilgan bo‘lib, yillar bo‘yicha eng ko‘p miqdorda kredit ajratilgan yil 2015 yil bo‘lib, 2015 yilda 500 million AQSh dollariga teng miqdordagi kredit ajratilgan. Ayrim yillarda aniqrog‘i 1996, 2001, 2004, 2006-yillarda hamkorlikda hech qanday loyiha moliyalashtirilmagan. Eng ko‘p loyiha amalga oshirilgan yil 2013-yil bo‘lib, unda jami 3 ta loyiha birgalikda amalga oshirilgan. Shuningdek, 2017-yilda mazkur bank tomonidan ajratilgan kredit mablag‘lari 444,9 mln. AQSh dollariga yetdi.

Hamkorlik doirasida amalga oshirilgan loyihalar faqatgina bir yo‘nalish yoki sohaga ajratilmagan bo‘lib, turli xil sohalar ajratilgan mablag‘lar hisobiga rivojlangan. Ushbu loyihalarni sohalar bo‘yicha tahlil qilamiz (2.4-rasm).

³⁶ <http://projects.vsemirnyjbank.org/>



2.4-rasm. Hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalarning sohalari bo'yicha tahlili³⁷

2.4-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, Jahon banki bilan amalga oshirilgan loyihalar tarkibida eng katta ulushni hukumat bo'yicha loyihalar tashkil etadi. Unda keyingi o'rinda esa irrigatsiya sohasida amalga oshirilgan loyihalar bo'lib, ularning soni 7 taga teng. Sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha moliyalashtirilgan loyihalar soni 5 tadan bo'lsa, qolgan barcha sohalarda amalga oshirilgan loyihalar 20 tani (qolgan beshta soha bo'yicha 4 tadan) tashkil etadi.

Ushbu loyihalardan ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

1) Shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha loyiha³⁸

O'zbekiston Respublikasida shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish loyihasining maqsadi shoshilinch tibbiy yordam tizimining samaradorligini oshirishdan iborat. Bu to'rt komponentni o'z ichiga oladi. Birinchi qism, ShTY tizimni boshqarish va sifatni yaxshilash ShTY tizimini yuqori sifatli favqulodda va tezkor yordam ko'rsatishga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan qator tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu komponent texnik yordam, treninglar, tadqiqotlar, tadqiqotlar va jihozlarni moliyalashtiradi.

³⁷ <http://projects.vsemirnyjbank.org/>

³⁸ projects.worldbank.org

2.3-jadval**Shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha loyiha tahlili³⁹**

Loyihaning tartib raqami	P159544
Mamlakat	O'zbekiston
Mintaqa	O'rta Osiyo
Holati	Amalda
Kengash tomonidan tasdiqlangan muddat	25 aprel, 2018
Yakunlanish muddati	31 avgust, 2024
Moliyalashtirish miqdori	100 000 000 AQSh dollari

O'zbekistonni isitish uchun energiya samaradorligini oshirish loyihasining rivojlanish maqsadi hududning tanlangan shaharlarida isitish va issiq suv xizmatlari sifati va samaradorligini oshirishdan iborat. Loyiha tumanlarni isitish tizimlarini modernizatsiya qilish issiqlik ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, transport va tarqatish tizimlarini modernizatsiya qilish uchun energiyani tejashga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga mo'ljallangan,

2.4-jadval**O'zbekistonni isitish uchun energiya samaradorligini oshirish loyihasi tahlili⁴⁰**

Loyihaning tartib raqami	P146206
Mamlakat	O'zbekiston
Mintaqa	O'rta Osiyo
Holati	Amalda
Kengash tomonidan tasdiqlangan muddat	25 yanvar, 2018
Yakunlanish muddati	31 dekabr, 2024
Moliyalashtirish miqdori	140 000 000 AQSh dollari

³⁹ projects.worldbank.org ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi

⁴⁰ projects.worldbank.org ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi

O‘zbekiston uchun chorvachilik sohasini rivojlantirish loyihasining rivojlanish maqsadi - tanlangan hududlarda chorvachilik samaradorligini oshirish va bozorga kirish.

2.5-jadval

Chorvachilikni rivojlantirish loyihasi tahlili⁴¹

Loyihaning tartib raqami	P153613
Mamlakat	O‘zbekiston
Mintaqa	O‘rta Osiyo
Holati	Amalda
Kengash tomonidan tasdiqlangan muddat	23 iyun, 2017
Yakunlanish muddati	30 iyun, 2023
Moliyalashtirish miqdori	236.5 000 000 AQSh Dollari

Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlik.

Islom taraqqiyot banki (ITB) 1973 yil 18 dekabrda Islom konferentsiyasi tashkiloti (IKT) ga a’zo davlatlar moliya vazirlari yig‘ilishida tashkil etilgan va faoliyatini 1975 yilning oktyabrida boshladi. IDB bosh qarorgohi Jidda , Saudiya Arabistoni. Shu bilan birga, bankning Rabat (Marokash), Kuala Lumpur (Malayziya), Almati (Qozog‘iston) va Dakar (Senegal) shaharlarida 11 vakolatxona va 4 mintaqaviy vakolatxonasi mavjud. O‘zbekiston 2003-yilda Islom hamkorlik tashkilotining ixtisoslashtirilgan tuzilmasi – Islom taraqqiyot bankiga a’zo bo‘lgan. 2017-yilda O‘zbekiston hukumati va Islom taraqqiyot banki (ITB) 300 mln dollarlik moliyaviy kelishuvni imzoladi. Taqdim qilingan mablag‘lar “Qishloq joylarida turar-joy qurilishini rivojlantirish” loyihasining 2-bosqichini amalga oshirish yo‘naltiriladi.

ITB mablag‘larni 15 yillik, jumladan, 2 yillik imtiyozli muddatga berdi. Loyiha doirasida 2017-2021 yillarda O‘zbekistonning 6 ta viloyatida yangilangan namunaviy loyihalar asosida 6,4 mingtadan ko‘proq uy, 110,52 km kirish va ichki yo‘llar, 197,80 km lik ichimlik suvi tizimi quriladi.

⁴¹ projects.worldbank.org ma’lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi

Loyihaning amalga oshirilishi qishloq joylarida yashovchi 30 mingga yaqin odamning yashash sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

ITB avvalroq "Qishloq joylarida turar-joy qurilishini rivojlantirish" loyihasining 1-bosqichini amalga oshirish uchun 100 mln dollar taqdim qilgandi. 2015-2016 yillarda loyiha doirasida Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining 22 ta qishloq aholi punktida 1415 ta uy, 33,80 km kirish va ichki yo'llar, 40,62 km lik ichimlik suvi tizimi barpo etilgandi.⁴²

Bundan tashqari O'zbekiston ITB bilan bir qator boshqa loyihalar bo'yicha ham hamkorlik aloqalarini olib bormoqda⁴³.

2.6-jadval

ITB bilan hamkorlikdagi loyihalar tahlili⁴⁴

No	Loyihalarning nomlanishi, sektori hamda boshlangan vaqti
1	"O'zbekistonning qishloq joylarida turar-joy qurilishini rivojlantirish" Sektor: Uy qurilishi Boshlangan vaqti: 1 may, 2017
2	Aluminum System MCHJ Sektor: Sanoat va konchilik Boshlangan vaqti: 29 may, 2017
3	"O'zbekistonda zamonaviy turar-joy qurilishini rivojlantirish" Sektor: Sog'liq va boshqa ijtimoiy xizmatlar Boshlangan vaqti: 10 may, 2017
4	Qishloq Qurilish Bank Sektor: Moliya Boshlangan vaqti: 14 noyabr, 2017

2018-yilda O'zbekiston investitsiya davlat qo'mitasi va Xalqaro islom savdo-moliyaviy korporatsiya 100 million dollar kredit taqdim etish bo'yicha shartnoma imzolashdi. Shartnoma doirasida ITFC O'zbekiston kompaniyalariga ikki yil davomida 100 million dollarlik qisqa muddatli kreditlar beriladi. Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdo-moliyaviy sohasini

⁴² uzdaily.uz

⁴³ <https://www.isdb.org/projects>

⁴⁴ <https://www.isdb.org/projects>

qo‘llab-quvvatlash maqsadida kredit mablag‘lari yo‘naltiriladi. Ushbu shartnoma islom davlatlari O‘zbekiston kichik va o‘rta biznes shartnomalari uchun moliyaviy-savdo resurlaridan foydalanish imkonini beradi. O‘zbekiston tomoni ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda bank respublikaga sog‘liqni saqlash, ta’lim, irrigatsiya va melioratsiya, energetika, suv ta’minoti, kommunal xo‘jalik, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, kichik ishbilarmonlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha 26 ta loyiha uchun 1,4 milliard dollar ajratdi.

O‘zbekistonning Yevropa Taraqqiyot va tiklanish banki bilan hamkorligi.

Yuqorida ta’kidlanganidek O‘zbekiston Yevropa Taraqqiyot va tiklanish banki bilan faol tarzda hamkorlik aloqalari olib bormoqda hamda bir nechta loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. Quyidagi YTTB ning O‘zbekistondagi faoliyati tahlilini ko‘rib chiqamiz (2.6-jadval).

2.7-jadval


YTTBning hozirga vaqtda qadar O‘zbekistondagi faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar⁴⁵

Jami loyihalar soni: 60 ta	Amaldagi loyihalar soni: 11 ta
YTTBning kumulyativ investitsiyalari miqdori: 868 million yevro	Amaldagi loyihalar portfoliosi miqdori: 73 million yevro
Jami to‘lovlar: 621 million yevro	Operative aktivlar: 59 million yevro

Yuqoridagi jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston YTTBga a’zo bo‘lgan vaqtdan hozirga qadar hamkorlikda 60 ta loyiha birgalikda boshlangan va shularning 49 tasi yakunlanib, 11 tasi hozirga qadar amalga oshirilib kelimoqda. Jami investitsiyalar miqdori 868 million yevroni tashkil etib, shundan amaldagi loyihalar miqdori 73 million yevroni tashkil etadi.


Ushbu investitsiyalar birgina sohaga emas, bir qator sohalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning tahlili ko‘rib chiqamiz (2.5-rasm).

⁴⁵ <https://www.ebrd.com> YTTBning rasmiy sayti ma’lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi



2.5-rasm. Amaldagi investitsion loyihalar portfelining tarkibiy tuzilishi tahlili (mln. yevroda).⁴⁶

Rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, amaldagi loyihalar to'rtta sohada amalga oshirilayotgan bo'lib, ular ichida eng ko'p mablag' ajratilgan soha moliya institutlari hisoblanadi, ya'ni 73 million yevroning 63 % / 45 million yevro aynan shu sohaga yo'naltirilgan. Undan keyingi o'rinda sanoat, tijorat va agrobiznesga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, ular portfelning 36 % / 26 million yevroni tashkil etadi. Keyingi o'rinda infratuzilma hamda energiya sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar bo'lib, ularga ajratilgan mablag'lar birgalikda 2 million yevroni deyarli 2%ni tashkil etadi.



2.6-rasm. Amaldagi investitsion loyihalarning yillar bo'yicha tahlili.⁴⁷

⁴⁶ <https://www.ebrd.com> YTTBning rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi

⁴⁷ <https://www.ebrd.com> YTTBning rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tuzildi.

2.6-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2012-yilda hamkorlik aloqalari doirasida 2 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha shartnoma imzolangan hamda ushbu loyihalarning umumiy miqdori 2 million yevroni tashkil etgan, ammo 2013-yildan 2017-yilga qadar loyihalar bo'yicha hech qanday bitim imzolanmagan ya'ni bu borada hamkorlik aloqalari olib borilmagan. 2017-yildan boshlab esa yana bir qator loyihalar amalga oshirish boshlangan, xususan 2017-yilda jami 6 ta investitsion loyiha bo'yicha shartnomalar tuzilgan, ushbu loyihalarning umumiy miqdori 69 million yevroni tashkil etgan. Hozirda ham ushbu loyihalar amalga bo'yicha hamkorlik olib borilmoqda.

Ushbu loyihalarning ayrimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – Uzbek Leasing International kompaniyasiga kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit ajratish

Davlat: O'zbekistan

Loyiha tartib raqami: 49309

Biznes faoliyat turi: Nobank Kredit Tashkiloti

E'lon turi: Xususiy

Ekologik tasnifi: Moliyaviy muassasa

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi: 16 noyabr, 2017 yil

Tasdiqdan o'tish bosqichi: Loyihaning kontsepsiyasi ko'rib chiqilgan

Loyiha mazmuni: Loyiha Uzbek Leasing International ("Kompaniya" yoki ULI) Aksiyadorlik Jamiyatiga 10 million AQSH dollari miqdorida kredit ajratishdan iborat. Loyiha har biri 3 million AQSH dollariga teng ikki transh va 4 million AQSH dollariga teng uchinchi transhdan iboratdir. Ikkinchi va uchinchi transhlar bo'yicha mijozga olish majburiyati yuklatilmaydi. Kredit ULI tomonidan O'zbekistondagi kichik biznes vakillarining tijoriy maqsadlarda foydalanishi uchun transport vositalari, yuk tashish mashinalari va ishlab chiqarish uskunalari sotib olishlarini moliyalashtirish uchun ajratiladi.

Loyiha maqsadi: Kichik biznesni moliyalashtirish uchun ajratilayotgan kredit ULI kompaniyasi tomonidan O'zbekistondagi kichik biznes vakillarining o'rta va uzoq muddatli moliyalashtirishga bo'lgan talablarini qondirish uchun

yoʻnaltiriladi. Shuningdek, loyiha mamlakat kichik biznes vakillarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini oshirilishi orqali iqtisodiyotning real sektoridagi raqobatni yanada kuchayishiga olib keladi.

YTTB ning ULIGA ajratiluvchi moliyaviy mablagʻi 10,000,000.00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati 10,000,000.00 AQSH dollari

Moliyaviy Muassasalarni Kreditlash – DAVR Bankka kichik biznesni moliyalashtirish uchun kredit ajratish.

Davlat: Oʻzbekiston

Loyiha tartib raqami: 49817

Biznes faoliyat turi: Moliyaviy muassasa

Eʼlon turi: Xususiy

Ekologik Tasnifi: Moliyaviy muassasa

Kuzatuv kengashiga taqdim etilish sanasi: 20 iyun 2018

Tasdiqdan oʻtish bosqichi: Loyihaning kontsepsiyasi koʻrib chiqilgan

Loyiha mazmuni: Loyiha Davr Bank xusisiy aksiyadorlik jamiyatiga mahalliy valutada 5 million AQSH dollariga teng boʻlgan kredit liniyasni ajratishdan iborat. Ajratilgan mahalliy valuta krediti Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes vakillarini moliyalashtirish uchun taqdim etiladi. Shuning bilan birga texnik koʻmak dasturi ham taqdim etiladi.

Loyiha maqsadi: Loyihaning asosiy maqsadi Davr Bankning mijozlarga taqdim etayotgan mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, xususiy kichik ishlab chiqarish korxonalarini moliyalashtirishni kengaytirish va viloyatlarda faoliyat olib borayotgan yangi mijozlarni jalb qilishdan iborat.

YTTB ning Davr Bankka ajratiluvchi moliyaviy mablagʻi Mahalliy valutada 5,000,000.00 AQSH dollari miqdoriga teng boʻlgan kichik ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun kredit liniyasi.

Loyihaning umumiy qiymati Mahalliy valutada 5,000,000.00 AQSH dollariga teng limit.

Bundan tashqari, oʻtgan yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik

biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xitoy taraqqiyot banki, Germaniyaning KfV banki, Koreya Eksimbanki, Hindiston Eksimbanki, Amerika, Italiya, Ispaniya kabi bir qator rivojlangan davlatlarning banklari va xalqaro moliya institutlarining uzoq muddatli imtiyozli kredit resurslari jalb etib kelindi.

Mamlakatimizda kichik biznes subyektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengayib bormoqda. Bunday hamkorlikni asosan qaysi banklar o'rtasida bo'layotganini yuqoridagi rasm orqali ko'rish mumkin.

O'z navbatida, Markaziy bank tomonidan tijorat banklari bilan hamkorlikda xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalarini kengroq jalb etish, mazkur institutlar bilan teng huquqli hamkorlik asosida amaliy ishlar olib borish, ularni O'zbekistonning investitsiya imkoniyatlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yaratilgan qulay huquqiy va iqtisodiy muhitdan xabardor qilish maqsadida xalqaro moliya institutlari vakillari ishtirokida konferensiyalar, forumlar o'tkazib kelindi.

Mamlakatimizdagi 27 ta tijorat bankning qariyb barchasida xalqaro kreditlarni ajratish amaliyoti mavjud bo'lsada, ulardan ba'zilarida bunday amaliyot qanday darajada yo'lga qo'yilganligini tahlil qilamiz.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida ham xalqaro kreditlar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Bu turdagi kreditlarning asosiy shartlari bilan quyidagi jadval ma'lumotlari orqali tanishish imkoniyati mavjud.

TIF Milliy bankida kichik biznesni rivojlantirish uchun taqdim yetilgan xorijiy kredit yo'nalishlarining asosiy mezonlari. Umumiy talabalar:

Qarz oluvchi - xususiy kichik korxonalar (yoki nazorat ishtiroki xususiy shu'baga tegishli bo'lgan aralash sarmoyali korxonalar) yoxud davlat tomonidan nazorat qilinadigan, lekin xususiy mulkchilik shakliga va xususiy nazoratga o'tishning bank uchun maqbul bo'lgan aniq rejasini amalga oshirayotgan davlat

korxonasi bo'lishi kerak;

Kreditning eng katta summasi - kontrakt qiymatining 85%dan oshmasligi kerak;

Qarz oluvchining o'z mablag'lari (o'z saromyasi) - loyiha dastlabki qiymatining kamida 25%. Qarz oluvchi ta'minot sifatida loyihani amalga oshirishda zarur bo'ladigan binolar, inshootlar, mashina va usunalarni, shuningdek ishlab chiqarish boshlanishidan oldingi davrda moliyaviy xarajatlarni qoplash hamda aylanma sarmoyani shakllantirish uchun kerakli boshqa vositalar ko'rinishidagi o'z sarmoyasini taqdim yetishi mumkin;

Garov ta'minoti - Kredit summasining 120%. Xukumat, birinchi darajali banklar, uchinchi shaxslarning kafolati, sug'urta vasiqalari, asosiy vositalar - binolar, inshootlar (baholangan qiymatining 70%gacha), uskunalar (baholangan qiymatining 60%gacha);

O'zmilliybank boshqaruv uchun vositachilik haqi - kredit summasidan 0,15% to'lov kunidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning kursi bo'yicha;

To'lovlar davriyligi - Har 6 oyda;

Xitoy Davlat taraqqiyot bankining kredit yo'nalishi qo'shimcha talablar:

Kreditlardan maqsadli foydalanish - Xitoydan tovar va xizmatlarni sotib olish (Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlar ulushi kamida 50%);

Xorijiy bankning kredit boshqaruvi uchun vositachilik haqi - qarz kelishuviga asosan;

Koreya Eksimbankining kredit yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha talablar:

Kreditlardan maqsadli foydalanish - Koreyadan tovar va xizmatlar sotib olish;

Xorijiy bankning kredit boshqaruvi uchun vositachilik haqi - har bir ma'qullangan, individual uzoq muddatli kredit uchun 0,20% yillik (bir martalik);

Xorijiy bankning majburiyat uchun vositachilik haqi - kredit summasining foydalanilmagan va bekor qilinmagan qismiga 0,5% yillik;

Asaka bank hozirgi kunda sanoat sohalarida amalga oshirilayotgan bir qator

sarmoya loyihalari quyidagi xalqaro kredit yo‘nalishlari bo‘yicha moliyalashtirilgan:

- Xalqaro Moliya Korporatsiyasi – XMK;
- Osiyo Rivojlanish Banki – ORB;
- Islom Rivojlanish Banki – IRB;
- “Commerzbank AG”;
- “Landes Bank Berlin AG”ning 2 kredit yo‘nalishi;
- “Dresdner Bank” (Germaniya);
- “Hipovereys bank” (Germaniya);
- “Banco Santander Setral Hispano”ning 2 kredit yo‘nalishi (Ispaniya);
- “Societe Generale” (Ispaniya vakolatxonasi);
- “Instituto de Kredito Oficial” (Ispaniya);
- “Rayfayzen bank” (Chexiya);
- Milliy eksport kredit agentliklari bilan hamkorlik.

Xalqaro rivojlantirish uyushmasining kredit liniyasi orqali moliyalashtirish shartlari:

– ushbu kredit liniya kishlok xo‘jalik korxonalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan;

Xalqaro moliya tashkilotlari bilan aloqalar har bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababdan xalqaro moliyaviy tashkilotlarni yaxshilash har bir rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur hisoblanadi. Ammo ushbu moliya institutlaridan olingan kreditlar davlat tashqi qarzi miqdorini oshiradi. Tashqi qarzlarning oshishi esa, davlat uchun unchalik ham ijobiy bo‘lmagan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

O‘zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi mamlakatning jahonda o‘z o‘rnini egallashini ta‘minlovchi ilk qadamlardan biri hisoblandi.

1. 1992 yil 21 sentabrda boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining a'zosi hisoblanadi. Uning oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun 12,1 mln. AQSh dollari miqdorida badal to'lagan. O'zbekistonda XTTB tomonidan 2493 aksiya chiqarildi, ovozlar esa 2743ni tashkil etdi. 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro valuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqararo taraqqiyot asotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikda O'zbekiston Respublikasining a'zoli to'g'risida" gi qonuni kuchga kirdi.

2. Jahon bankining mamlakatga ko'mak berish bo'yicha Strategiyasi doirasida Davlatning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan dasturlar to'plami asosiy 4 yo'nalishga qaratilgan:

- 1) iqtisodiy o'sish uchun sharoitni yaxshilash;
- 2) qishloqlarda iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini oshirish;
- 3) aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish;
- 4) atrof-muhitni boshqarish hamda global ommaviy ehtiyojlarning taqdim etilishi.

3. Jahon banki bilan joriy hamkorlik Bankning O'zbekiston Respublikasi bilan 2016-2020-yillar oralig'idagi hamkorlik strategiyasiga asoslangan bo'lib, qiymati 4 milliard dollar bo'lgan (3,0 milliard dollari - Jahon banki qarzi) jami 27 investitsiya loyihalarini o'z ichiga olgan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining imtiyozli kreditlari va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kreditlarini nazarda tutadi.

4. OTB xususiy sektorga 225 mln. AQSh dollari miqdoridagi ikkita zayom va texnik ko'mak grantlari ko'rinishidagi 61,7 mln. AQSh dollarini o'z ichiga olgan umumiy miqdori 4,1 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan 54 zayomni ajratdi.

5. 2017-yil mart oyida O'zbekiston va YTTB o'rtasida bank Anglashuv memorandumi imzolandi.

6. O'tgan yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xitoy taraqqiyot banki,

Germaniyaning KfV banki, Koreya Eksimbanki, Hindiston Eksimbanki, Amerika, Italiya, Ispaniya kabi bir qator rivojlangan davlatlarning banklari va xalqaro moliya tashkilotlarining uzoq muddatli imtiyozli kredit resurslari jalb etib kelindi.

7. Bundan tashqari O'zbekiston boshqa bir qator xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan bo'lib, hozirgi kunda ushbu hamkorlik aloqalari doirasida bir qator loyihalar moliyalashtirilgan hamda istiqbolda bir nechta loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha rejalar tasdiqlangan.

III BOB. XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI BILAN O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI IQTISODIY MOLIYAVIY ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. O‘zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan istiqboldagi hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari

Hozirgi vaqtda kelib, O‘zbekiston ko‘plab moliya tashkilotlar bilan samarali hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Ushbu xalqaro moliya tashkilotlari O‘zbekistonning ijtimoiy hamda iqtisodiy sohalariga qator investitsiyalar kiritgan. Ushbu investitsion loyihalarning tahlili II bobda ko‘rsatilgan. Investitsion loyihalar soni ko‘p bo‘lgani bilan, hamkorlik aloqalarini mustamkamlash doimiy ravishda e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat hisoblanadi. Sababi, xalqaro bozorga chiqish uchun, davlatning eksport salohiyatini oshirish uchun, aholining ijtimoiy qo‘llab quvvatlash uchun, ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaxshilash uchun xalqaro moliya institutlarini bilan aloqalarni rivojlantirish vazifalardan biri hisoblanadi.

Agar hamkorlik va sheriklik, shuningdek strategik sheriklik mohiyati ochib berilsa, unda mamlakatimiz qaysi yo‘nalishdan borayotganligi ayon bo‘ladi.

Hamkorlik – o‘zaro manfaatlar mos kelishini aks ettiruvchi ayrim masalalarda birgalikda harakat qilishdir.

Sheriklik esa hamkorlik qilayotgan tomonlarning ichki va tashqi siyosatini belgilovchi nazariy tamoyillarda yakdillikni ko‘zda tutadi. Bu geo siyosiy yoki iqtisodiy tavsifdagi strategik manfaatlar va yuqoridarajada bir-birini tushuna bilishlik va ishonchni qo‘shilib ketishdir. O‘zbekiston va XMIlar shunday asosni barpo qilish yo‘lidan ancha joyga borib qoldilar.

Strategik sheriklik – har ikki tomonning bir-biri bilan uchrashishiga bo‘lgan, xarakatini talab etadi va o‘zaro munosabatlarning istiqbolli ramziy maqsadi hisoblanadi. Bunday sheriklik yuqori darajadagi ishonchni umumiy manfaatlar yo‘lida keng doiradagi masalalar bo‘yicha harakatlar uyg‘unligi, ba’zi hollarda esa o‘zaro yordamni taqozo etadi.

Mamlakatimizda xorijliklar uchun ular faqat mehnat va kapitallarini talab

etish uchungina emas, balki to'laonli va rang-barang faoliyatlari, turli-tuman ehtiyoj va talablarini qondirishga ham sharoit yaratib berilgan. Chet elliklar uchun Toshkentdan uzoq bo'lmagan joyda jahon andozalari darajasida dam olish maskani bunyod etilgan, barcha yirik shaharlarda zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo'lgan dam olish va sport inshootlari qurilgan. Birinchi toifali mehmonxonalar mavjud va yangilari qurilmoqda, chet elliklar uchun faqat ijaraga olish emas, balki ko'chmas mulkni xususiy qilib sotib olishga, uni qayta qurish yoki butunlay o'z o'ziga moslab yangidan qurishga ruxsat berilgan.

Shu vazifa yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligida Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik masalalari bo'limi tashkil etildi.

Bo'limning asosiy maqsadlari va vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining istiqbollaridan kelib chiqqan holda Xalqaro moliyaviy institutlar (XMI) bilan istiqbolli va joriy hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

XMI mablag'lari ishtirokidagi istiqbolli investitsiya loyihalari ro'yxatini yangilash bo'yicha aniq takliflar kiritish;

XMI qarz mablag'lari ishtirokida amalga oshirilishi mo'ljallangan investitsiya loyihalarining tayyorgarlik jarayonining monitoringini amalga oshirish, aniqlangan monitoring muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish;

XMI qarz mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalarga aloqador ma'lumotlarni vazirlikning tegishli bo'limlar bilan hamkorlikda to'plash, o'rganish va qayta ishlash;

vazirlik rahbariyatining XMI vakillari bilan bo'ladigan rasmiy uchrashuvga kerakli materiallarni tayyorlash;

Bu shundan darak beradiki, bugungi kunda Xalqaro moliya institutlari bilan bo'ladigan munosabatlar tartibga solinishini hamda nazoratni talab etadi. Hozirgi kunda xalqaro moliya institutlari qator sohalarda hamkorlik doirasida investitsion loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan kelajakda boshqa soha yoki tarmoqlarga kreditlarning jalb qilish mamlakat iqtisodiy

salohiyatini yanada yaxshilaydi. Bu yoʻnalish va tarmoqlar quyidagilar:

1. Toʻqimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish.

Bilamizki, Oʻzbekiston xom ashyo yetkazib berish boʻyicha asosiy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ammo, xom ashyodan koʻra uni tayyor mahsulot sifatida eksport qilish mamlakat Yalpi ichki mahsulotini oshiradi. Hozirgi vaqtda garchi mamlakatimizda toʻqimachilik sanoatini rivojlanayotgan boʻlsada, bu sohani Oʻzbekiston ichki salohiyatidan kelib chiqqan holda yetarlicha rivojlangan deya olmaymiz. Shu sababdan ushbu sohaga xalqaro moliya institutlaridan kreditlarni jalb qilish oʻzini albatta oqlaydi.

2. Kichik biznes subyektlarini rivojlantirish.

Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning rivojlanishini taʼminlovchi asosiy vositalardan biri boʻlib xizmat qiladi. Shu sababdan xorijiy kredit liniyalari orqali kichik biznes subyektlarini rivojlantirish amaliyotini yanada kengaytirish mamlakat YaIM koʻrsatkichi, eksport salohiyati, davlat budjetini mablagʻlarining ham oshishini taʼminlaydi. Davlat budjeti mablagʻlarining oshishi kichik biznes subyektlarini tomonidan toʻlanadigan soliqlar hisobiga amalga oshadi. Buning natijasida davlat budjetining solikli daromadlari tarkibida toʻgʻri soliqlarning ulushi oshadi. Barchamizga maʼlumki, davlat budjetida toʻgʻri soliqlarning egri soliqlarga nisbatan koʻproq boʻlishi davlat iqtisodiyoti rivojlangan davlat ekanligidan dalolat beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda esa kichik biznes subyektlarini xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan kredit liniyalari orqali moliyalashtirish quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqazo etadi:

a) Kichik biznes subyektlarining ustav kapitalini oʻz mablagʻlari hajmidagi salmogʻini oshirish orqali ularga xalqaro kreditlarni ajratish yoʻllarini tuzish;

b) Asosan kichik biznes subyektlariga berilgan xalqaro kreditlar qaytmay qolishini oldini olish maqsadida, ularning joriy likvidlilik darajasini pasayishini oldini olish, debitorlik qarzlarni aylanish tezligini oshirish va ular tomonidan yuqori likvidli qimmatli qogʻozlarga investitsiya qilishni oshirish lozim;

c) Kichik biznes sohasiga xalqaro kreditlarni jalb etish jozibadorligini

oshirish zarur.

d) Respublikamizda devalvatsiya jarayoni davom etayotganligini hisobga olib, kichik biznes subyektlariga berilayotgan xalqaro kreditlar foiz stavkalri yuqori ekanligi barchaga ma'lum, shu yuzasidan xorijiy kreditlarning foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilab qo'yish maqsadag muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz;

3. Ikkilamchi energiya ta'minotini rivojlantirish.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekistonning chekka hududlarida energiya ta'minoti bilan bog'liq muammolar mavjud. Elektr energiyasini aholi iste'moli uchun yetkazib berish xarajatlari kommunal to'lovlarning belgilangan miqdoridan yuqoriligini inobatga oladigan bo'lsak, elektr energiyasini yetkazib beruvchi muqobil yo'llarni ishlab chiqish, ya'ni ushbu loyihani ishlab chiqish hamda uni moliyalashtirish manbasini belgilash kelajakda elektr energiyasi bilan bog'liq muammolarning hal qilinishi ta'minlaydi. Masalan, hozirgi kunda qator davlatlarda shamol generatorlari orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish amaliyoti keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu shamol generatorlarini harakatga kelishi uchun kuchli shamol talab etilmaydi. Bizning fikrimizcha ushbu loyiha bo'yicha istiqbolda hamkorlik aloqalarini olib borilishi faqatgina yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladi.

4. Yoqilg'i energetikasi ta'minotini rivojlantirish.

Joriy yilning "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yili ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, innovatsion loyihalar bilan tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish davlat dasturini ijrosini ta'minlash yuzasidan qilingan sa'y harakatlar hisoblanadi. O'zbekistonda aholi soning qo'shni mamlakatlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, ular tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulotlardan so'ng vujudga keladigan chiqindi miqdori ham sezilarli darajada bo'lib, ushbu chiqindilarning asosiy qismi qayta ishlanmaydi. To'g'ri, bizda asosan, yelim hamda qog'ozdan tarkib topgan chiqindilar qayta ishlanadi, ammo oziq ovqat ya'ni sabzavotlardan hosil bo'ladigan

chiqindilar umuman qayta ishlanmaydi. Shvetsiyada aholi tomonidan tashlanadigan chiqindilar, ya'ni oziq ovqat chiqindilari qayta ishlanib, avtomobillar uchun yoqilg'i energiyasi hosil qilinadi. Ushbu mamlakatda deyarli 100 % chiqindilar qayta ishlanadi. Buning uchun talab qilinadigan choralardan biri aholini uyda hosil bo'ladigan chiqindilarni aholida ranglardagi idishlarda to'plash hamda maxsus chiqindi qutilariga solishga o'rgatish hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganimizdek, mamlakatimiz aholisining ko'pligi ular tomonidan boshqariladigan avtomobillar sonining ham ko'pligidan dalolat beradi. Buning natijasida ular tomonidan chiqaziladigan zararli gazlar atrof muhitni ifloslantiradi hamda issiqlik ko'rsatkichining oshishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda yoqilg'ining asosan import qilinishi hisobga oladigan bo'lsak, ushbu loyihaning amalga oshirilishi ichki bozorda hech qanday munozara hamda kelishmovchilikka sabab bo'lmaydi. Shu sababdan ushbu loyiha bo'yicha istiqbolda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi faqatgina yurtimiz iqtisodiyotini hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Chet el sarmoyasini jalb etish turli shakllarining afzallik va kamchiliklarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasini to'g'ridan-to'g'ri jalb etish ancha maqbul bo'ladi, bu investitsiya qaratilgan mamlakatga investorning uzoqqiziqishini uyg'otadi va tashqi qarzga nisbatan ancha samarali bo'ladi.

Chet ellik investorlar milliy korxonalariga o'z kapitallarini, texnologiyalar, boshqaruv tajribalarini qo'yibgina qolmay balki jahon bozoriga chiqishga yo'l ham ochadilar. Bu o'tish davri iqtisodiyotida eng yangi jahon ilmiy-texnika yutuqlari, texnologiyalarining kirib kelishidagi muhim yo'nalish sifatida zarurdir. Zero, bu milliy xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar munosabatlari rivojiga moslashish darajasini oshiradi, ular ishlab chiqarish faoliyatini jahon standartlariga muvofiq tarzda samaralilashtiradi.

O'zbekiston chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha kafolat va imtiyozlarni kengaytirishi, rag'batlashtirishni kuchaytirishi lozim. Buning uchun investitsiya faoliyatiga qulay sharoit vujudga keltirish zarur. Shunday qilish kerakki, O'zbekiston bozori mamlakatimizda o'z biznesiga ega bo'lishni

istovchilarning barchasi uchun yanada jozibaliroq bo'lsin.

Investitsiya butun jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazadi, ayniqsa, uning asosi hisoblanishi xalqaro biznesga. Amalda barcha mamlakatlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni eksportchisi yoki importchisi hisoblanadi. Agar kapital eksport qiluvchi eng yirik o'nta davlatni ajratish lozim bo'lsa, bu ro'yxatdan quyidagi, jahon iqtisodiyotida tan olingan, davlatlar o'rin egallashi aniq. Bular: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Kanada, Italiya.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning xarqaro raqobatbardoshligini, shuningdek eksport salohiyatini oshirish, yuqori texnologiyaga asoslangan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish, modernizatsiya qilish jarayoni sohaga yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni talab etadi. Birinchi prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi"⁴⁸. Shunday ekan, milliy iqtisodiyotimizni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish va chuqurlashtirishga talab qilinadigan yirik miqdordagi investitsiyalarni tashkil etishda xorijiy investitsiyalarning o'рни kattadir. Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish uchun mamlakatdagi investitsion muhit, chet ellik investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning XMillari bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish istiqbolda:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob bera olmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi (<http://www.press-service.uz/uz/>)

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorijning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga qadri baland valutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsion loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirish quyidagi jihatlarga bog'liq hisoblanadi:

- amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalarning jozibadorlikgini oshirish, ya'ni bunda ularning sof joriy qiymat hamda daromadlilik indeksi ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishini ta'minlash hamda ushbu jihatlarni moliyalashtirishni amalga oshiruvchi institutlarga ko'rsatib bera olish;

- investorlar uchun keyingi o'rinda turuvchi jihat bu risklilik darajasining past bo'lishidir. Shu sababdan loyihalarning risklilik darajasini kamaytiruvchi dasturlarni ishlab chiqish lozim. To'g'ri buni amalga oshirish bir muncha qiyin bo'lsada, agarda amalga oshirilsa XMI lar tomonidan kiritilayotgan kreditlar hajmi oshishi ta'minlanadi;

- ayrim xalqaro moliya institutlari davlat tomonidan ayrim turdagi imtiyozlar ajratilishi afzal ko'radi, shu sababdan imtiyozlar mavjud bo'lishi keluvchi pul oqimlarining ham oshishiga sabab bo'ladi;

3.2. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik aloqalari yaxshilash orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, xorijiy banklarning kredit liniyalari hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotining soha va tamoqlaridagi investitsiya loyihalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning eng maqbul usuli bu bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etishdir. Bugungi kunda respublikamizga bunday

investitsiyalarni jalb etish borasida bir qator muammolarning mavjudligi, ular oʻrniga hukumat kafolati ostidagi chet el qarzlari va xorijiy banklarning kreditlarini jalb etishni taqozo etmoqda. Milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun moliyaviy mablagʻlar bilan taʼminlash zarur ekan bu sohani rivojlantirish va takomillashtirish lozim boʻladi. Chunki iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish albatta, mamlakatning tezroq rivojlanishi hamda barqarorlashuviga olib keladi va uning istiqbolini yuksaltiradi. Fikrimizning isboti uchun quyidagi masalalarda Oʻzbekistonda xorijiy banklarning kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning rivojlantirish istiqbollari koʻrib chiqamiz:

Investitsiya muhitining takomillashib borishi. Har bir davlatning investitsiya sharoiti uning siyosiy va iqtisodiy barqarorligidan kelib chiqadi va bu investitsiya muhitini vujudga keltiradi. Xorijiy banklar bilan hamkorlikning rivojlanishi mamlakat investitsiya muhitining yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xorijiy banklar bilan hamkorlikning kuchayishi mamlakatga boʻlgan ishonch va qiziqishni orttiradi. Investitsiya muhitini yaxshilaydigan omillarga quyidagilar kiradi: investitsiyalardan foydalanishda soliq, bojxona imtiyozlarini kengaytirish, pulning qadrsizlanishi darajasini pasaytirish, milliy valutaning erkin almashinuvini taʼminlash, chet el investorlarining oʻz daromadlarini olib chiqib ketishini toʻla kafolatlash, axborot almashinuvi darajasini oshirish, hududiy investitsiya dasturlarini amalga oshirish, infratuzilma institutlari faoliyatini takomillashtirish, investitsiya siyosati samaradorligini oshirish va boshqalar. Mamlakatga xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklar kredit liniyalarining kirib kelishi shu hududdagi investitsiya siyosatning huquqiy asoslarini takomillashtiradi. Chunki bunday munosabatlarda tomonlarning oʻzaro manfaatlari toʻqnashadi va bu ularning oʻzaro muhosana kelishiga olib keladi hamda bunday muhosana xalqaro darajadagi huquqiy xujjatlar orqali belgilanadi va tartibga solinadi. Bunday munosabatlarning davomiyligi tez fursatlar ichida mamlakatda investitsiya faoliyatining samarali huquqiy va iqtisodiy asosini taʼminlaydi.

Makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi. Hozirgi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari asosan mamlakatga zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob-uskunalarni keltirishga va shu asosda jahon bozorlari standartlariga mos keladigan, ichki bozor talablarini qondiradigan va eksportga yo'naltiriladigan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda. Bunday ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi, nafaqat, mahsulot ishlab chiqarish orqali mamlakat ishlab chiqarish va eksport salohiyatining rivojlanishiga, balki yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi orqali ishsizlik muammosining hal etilishiga, korxonalarining rivojlanishiga, aholi daromadlarining ko'tarilishiga, davlat byudjeti daromadlarining oshishiga, mamlakat ichki bozorining turli xil tovarlar bilan ta'minlanishiga, mahsulot eksporti orqali valuta tushumlarining ko'payishiga, mahalliy xom ashyoning to'liq qayta ishlab chiqarishga yo'naltirilishiga, iqtisodiyotda raqobat, talab va taklif, narx-navo kabi bozor mexanizmlarining amal qilishiga, xullas makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga olib keladi.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar va xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari asosan iqtisodiyotning kimyo, neft va gaz, elektr-energiya, og'ir va engil sanoat, mashinasozlik, xom ashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish, qayta ishlash, kichik tadbirkorlik sohalariga yo'naltirilmoqda. Bu esa mamlakatning agrar iqtisodiyotdan asta-sekin industrilashgan iqtisodiyot sari o'tib borayotganligidan dalolat beradi. Mamlakat iqtisodiyotida alohida ahamiyat kasb etadigan soha va tarmoqlarning bir vaqtning o'zida baravar rivojlantirilayotganligi bu sohada strategik rejalar va dasturlarning mavjudligidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, aholining ko'p qismi qishloq joylarda yashashligini inobatga olib, hukumatimiz tomonidan sanoatni qishloqqa olib kirish, qishloq joylarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarda tub islohotlarni amalga oshirish ishlari ham olib borilmoqda. Iqtisodiyotning bir sohasining rivojlanishi ikkinchi bir sohaning ham rivojlanishini talab qilishini inobatga olib aytish mumkinki, sanoatning rivojlanishi albatta

qishloq xo'jaligining ham rivojlanishiga olib keladi.

Mamlakatda investitsiya muhitining takomillashib borishi, xorijiy investitsiyalarning hamda xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi albatta investitsiyalarni boshqarishni, ularni baholash usullarining takomillashuvini, ularning eng samarali manbalarini izlab topishni va joylashtirishni, yangiliklarni amaliyotga tatbiq qilishni, shu bilan bir qatorda ushbu soha rivojlanishiga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlarning o'z-o'zidan rivojlanishini taqozo qiladi. Albatta bunday ishlar boshida davlat turadi va u bunday o'zgarishlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini ta'minlaydi. Bunday o'zgarishlar natijasida investitsiyalarning muqobil usuli bo'lmish lizing munosabatlari, kredit uyushmalari, nobank kreditlash muassasalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya kompaniyalari va fondlari kabilar faoliyati rivojlanib va takomillashib boradi. Xorijiy banklar bilan hamkorlikning rivojlanib borgani sari xorijiy hamkorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishi va ishonchi ortib borishini biz yuqorida ta'kidlagan edik. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy banklarning kredit liniyalarini hukumat kafolatisiz, unchalik murakkab bo'lmagan shartlar asosida, uzoq muddatlarga, kichik foiz stavkalarida o'zlashtirish imkoniyatini berish bilan bir qatorda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlaridagi yirik investitsiya loyihalarini sindikatlashgan shaklda kreditlash imkoniyatini ham oshiradi. Sindikatlashgan kreditlashning bir qator afzalliklari mavjud bo'lib, ular qatoriga katta-katta loyihalarni moliyalashtirishning imkoni paydo bo'lishini, mahalliy banklar risklarining kamayishini, banklarning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalashda bevosita qatnashishini, mamlakatga xorijiy kreditlar bilan bir qatorda bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini kiritish mumkin. Bundan tashqari bunday investitsiyalarning kirib kelishi mamlakatda innovatsion loyihalarning moliyalashtirilishiga olib keladi. Bu esa respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatini rag'batlantiradi va ularni ham rivojlanishga undaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining milliy iqtisodiyotga jalb qilinishi iqtisodiyotning birmuncha yangi va rivojlanmagan tarmoqlarining ham rivojlanishiga olib keladi. Bugungi kunda

xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larini yanada kengroq jalb etish va samaraliroq joylashtirish uchun bizningcha quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

Birinchiidan, qulay investitsiya muhitini yaratishning asosiy shartlaridan bo'lgan investitsion faoliyat, investitsiya jarayonlari va xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq qonunchilikni isloh qilish lozim, ya'ni ularning amal qilish jarayonlarini hayotga tatbiq etish lozim. Bunday ishlar jumlasiga sindikatlashgan kreditlar bo'yicha va lizing munosabatlari, shuningdek, xorijiy investorlar va ularning huquqlarini himoya qilish, xorijiy banklar bilan xamkorlikni rivojlantirish bo'yicha mavjud qonunchilikni va me'yoriy xujjatlarni qayta ko'rib chiqish masalalari ham kiradi.

Ikkinchiidan, mamlakatda pul-kredit barqarorligi va samaradorligini ta'minlash lozim. Bunday ishlar jumlasiga milliy valuta qadrini ko'tarish, xorijiy valutalarining erkin ayriboshlanishini ta'minlash kabilar kiradi. Bu kabi tadbirlarning tezroq hal etilishi davlatning bu boradagi ishlarga o'z vaqtida e'tibor berishi va imkon qadar tezroq samarali va oqilona siyosat yuritishiga bog'liq bo'ladi.

Uchinchiidan, xorijiy banklar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali respublikamizga jalb qilinayotgan xorijiy banklarning kredit liniyalarining kreditlash shartlarini engillashtirishga erishish lozim. Ya'ni bu borada xorijiy banklarning marjalarini kamaytirish, imtiyozli davrni uzaytirish, xorijiy sug'urta kompaniyalari sug'urta kafolati ostida kirib kelayotgan liniyalar bo'yicha sug'urta mukofoti summasini kamaytirish, bir martalik komissiya va shunga o'xshash shartlarni qisqartirishga erishish lozim. Buning uchun esa xorijiy banklarning ishonchini oqlash, ularning mablag'larini o'z vaqtida qaytarishni kafolatlash, shuningdek, ularning bilvosita daromadlarini oshirish yo'llarini ta'minlash lozim.

To'rtinchiidan, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda garov ta'minotini ta'minlash maqsadida qarz oluvchi subyektlarga kafil bo'ladigan, kreditning qaytmasligidan sug'urtalaydigan sug'urta tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish lozim. Chunki kreditlash shartlaridagi

120-125 foizli garov ta'minotini kamaytirib bo'lmashligini hisobga olib garov ta'minoti berishi mumkin bo'lgan sug'urta kompaniyalari, fondlar kabi yangi garov shakllarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, mamlakatda barcha sohalar bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi, marketing tadqiqotlari bilan shug'ullanuvchi, axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga erishish lozim. Chunki bugungi kunga kelib investitsiyalarni moliyalashtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda marketing va axborot ishlari talab darajasida emasligi oqibatida bir qator muammolar paydo bo'lmoqda.

Oltinchidan, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida bevosita chet el investitsiyalarining katta afzalliklari mavjudligini hisobga olib, ularining O'zbekistonda yangidan amalga oshirilayotgan loyihalarga va qo'shma korxonalariga kirib kelishini har tomonlama rag'batlantirish lozim. Chet el investitsiyalarini va xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb etish bo'yicha uzoq muddatli maqsadli dasturlar asosida iqtisodiyotning sermehnat tarmoqlariga, ilmtalab va kapitaltalab sektorlariga kengroq va samarali jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, davlat investitsiya dasturi orqali moliyalashtirilayotgan loyihalarning samaradorligini oshirish maqsadida davlat investitsiya dasturini ishlab chiqishda bevosita xorijiy investitsiyalar hamda hukumat kafolatisiz kirib kelayotgan xorijiy banklar resurslari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha risklarni minimallashtirish masalalarini har tomonlama o'rganish zarur va bu jarayonlarga ham chuqur marketing tadqiqotlarini tatbiq etish lozim.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga katta e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, investitsiya loyihalarini turli xil manbalar evaziga moliyalashtirishda investitsiyalarning muqobil variantlaridan ya'ni lizing, sindikatlashgan kreditlash kabi shakllardan

unchalik e'tibor berilmayotir. Bu esa mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayotganlikni ko'rsatadi;

Keyingi yillarda mamlakatimizga chetdan jalb qilinayotgan investitsion resurslar tuzilmasida chet el kreditlari, jumladan, xorijiy banklarning kredit liniyalari mablag'larining o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Lekin, bizningcha, bevosita xorijiy investitsiyalarning kirib kelishini sezilarli darajada o'stirishga erishish masalasi, ko'proq, ahamiyatlidir;

Xorijiy kredit liniyalarning jalb qilinishining yana bir qulay shakli bu bank tizimini yanada rivojlantirish. Xorijiy banklarning respublikamizda filiallarini ochishni rag'batlantirish, tijorat banklarimizni jahondagi etakchi banklar qatoridan joy olishiga harakat qilish lozim;

Mamlakatda investitsiya bozori va unga xizmat qiluvchi infratuzilma institutlari faoliyatini takomillashtirish lozim. Buning uchun esa, avvalo, ushbu institutlarning tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy jarayonlarini ta'minlash lozim. Ayniqsa, loyihaviy moliyalashtirish bilan bog'liq loyihalashtirish, bozor holatlarini o'rganish, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni tahlil qiluvchi tadbirkorlarga turli xil konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi, investitsiya faoliyatiga ko'maklashuvchi institutlarning faoliyatini takomillashtirish juda zarur. Shuni ham taklif qilishimiz mumkinki, respublikada ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini, pul-sarmoyalar bozorini, ko'char va ko'chmas mulklar bozorini, intellektual ne'matlar bozori kabilar faoliyatini takomillashtirish lozim. Bundan tashqari, investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslash ishlarini olib boruvchi hamda hisobotlarni tuzuvchi, aniq investitsion qarorlar bo'yicha izlanishlar olib boruvchi, loyihalarni moliyalashtirishning turli xil bosqichlarida puxta marketing ishlarini olib boruvchi, konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi institutlarning faoliyatini kengaytirish va takomillashtirish lozim;

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bu qarz oluvchi korxonaning o'rnatilgan miqdordagi kredit ta'minotini qoplay olmasligi muammosidir. Bu muammoni hal etish uchun, avvalo, respublikamizda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari faoliyatlarini

zamonaviylashtirish, ular tomonidan ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari turlarini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni kamaytirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari kichik biznes subyektlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit ta'minotini qoplash uchun maxsus fondlarni tashkil etish lozim;

Yuqoridagi muammoning mantiqiy davomi sifatida shuni ham ta'kidlash lozimki, kredit ta'minoti sifatida taqdim etilayotgan hukumat kafolatini kamaytirish lozim, chunki hukumat kafolati ostida berilayotgan kreditlarning ko'pchilik qismi o'zini oqlamasligi holatlari kuzatilmoqda, shuningdek, kreditlar qaytmagan hollarda tijorat banklari ushbu summani hukumatdan undirib olishlari qiyin kechmoqda. Bu holat banklarning kredit portfeli sifatiga, aktivlarining holatiga va banklarning likvidliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun hukumat tomonidan kreditlar uchun ta'minotchi bo'la oladigan maxsus fondlarni tuzish va takomillashtirish, mavjud sug'urta kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirishga yordam ko'rsatish, o'zi garov bo'lib chiqishdan ko'ra samaraliroqdir;

Milliy iqtisodiyotda har bir soha va tarmoqning har tomonlama mukammal ravishda rivojlanishi, uning huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy hamda tashkiliy jihatlarining ta'minlanishi bevosita olib borilayotgan islohotlarning jadallashuvi va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham mamlakatga xorijiy investitsiyalar hamda xorijiy banklarning kredit liniyalarini jalb qilishni takomillashtirish uchun iqtisodiyotning har bir soha va tarmoqlarida o'ziga xos islohotlarni amalga oshirish hamda ushbu islohotlarning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qilishiga erishmoq lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur mavzuga bag'ishlangan dissertatsiya ishi bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

1. Xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilayotgan kreditlar asosan mamlakatdagi strategik dasturlarda o'z aksini topgan loyihalarga yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqadiki hozirgi kunda mamlakatimizda nafaqat iqtisodiyot va loyiha tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda, balki shu bilan bir qatorda aholining yashash tarzini ham yaxshilashga sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni aholi uchun arzon uy joylarni qurish bo'yicha dastur ham xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratilgan kreditlar hisobiga moliyalashtirilmoqda;

2. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni tubdan isloh qilish va uni barqarorlashtirishda, respublikada mavjud korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashda va ularni modernizatsiyalashda, jahon talablari darajasidagi raqobatbardosh milliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etishda, mamlakat ichki bozorini sifatli tovar va xizmatlar bilan to'ldirish hamda uning eksport salohiyatini oshirishda, mamlakatda ishsizlik, pulning qadrsizlanishi darajalarini pasaytirishda, iqtisodiyotning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talablarini qondirishda xalqaro moliya institutlarining roli va ahamiyati kattadir;

3. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash investitsiya faoliyati yuritilishining zaruriy investitsion muhitini yaratishni va uni tobora qulaylashtirib borishni talab etadi, investitsiya loyihasining amalga oshirilish hajmi, miqdori va dinamikasiga qarab mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasi hamda holatini baholash mumkin va o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning bajarilish holati belgilangan maqsadlarni ta'minlanishiga qanchalik mos kelayotganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin;

4. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlari o'zida jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlash uchun moliya va valuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida davlatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi.

5. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlarining yuzaga kelishiga asosan jahon xo‘jaligida globallasuv jarayonlarining rivojlanishi hamda xalqaro moliya bozorlaridagi va jahon valuta tizimidagi beqarorlikning kuchayishi sabab bo‘lgan.

6. Xalqaro valuta-kredit tashkilotlari quyidagi maqsadlarni ko‘zlagan holda faoliyat yuritadi:

- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliyani barqarorlashtirish maqsadida jahon hamjamiyatida harakatlarni birlashtirish;

- Valuta va moliya-kredit munosabatlarini xalqaro tartibga solishni amalga oshirish;

- Jahon valuta va moliya-kredit siyosatining strategiya va taktikasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

7. Xalqaro moliya tashkilotlarining faoliyati jahon xo‘jaligining barqarorligiga erishishga hamda valuta-moliya sohasidagi munosabatlarning uzluksizligini ta‘minlashga yordam beradi. Eng avvalo, bunga bo‘lgan zaruriyat davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ko‘lamining ortib borishi shuningdek, ularning o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

8. Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi muayyan darajada a‘zo mamlakatlarning xukumati va davlat tashkilotlari va bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko‘p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo‘yicha risklarni boshqarish va sug‘urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

9. Mamlakatimizga global investitsiya bozoridan moliyaviy resurslarni keng jalb etish uchun jahonda yetakchi xalqaro reyting agentliklarining yuqori darajadagi suveren kredit reytingi bahosini olishi, bozor islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur.

10. Mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish istiqbolda:

- yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish, ularni ishlab chiqarishga joriy qilish esa necha yillar davomida sifatsiz, xaridor talabiga javob beraolmaydigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eski texnikalardan tezroq qutilish imkonini beradi;

- yangi ish joylari tashkil qilish va aholining ishsiz qismini ish bilan ta'minlash, shu bilan birga, xorij ning ilg'or boshqaruv tajribasini joriy qilish imkonini beradi va shu orqali mehnat unumdorligi oshiriladi;

- jahon bozorida raqobatlasha oladigan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni eksport qilish evaziga mamlakatga qadribaland valutalarning ko'proq kirib kelishini ta'minlaydi.

11. Respublikamiz bilan xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish mamlakatimizning kelajakda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga hamda jahon iqtisodiy tizimi integratsiyasidagi o'rning yanada oshishiga asos bo'ladi.

Tadqiqotda mamlakatimiz iqtisodiyotiga xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlarini jalb etishni takomillashtirish qaratilgan qator ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. O'zaro foydali, samarali xalqaro investitsion loyihalarni tanlash, ekspertizadan o'tkazish va ularning ishlab chiqarishdagi nazariy qiymati bilan amaliyotdagi natijasini, ahamiyatini monitoring qilishning mukammal tizimini yaratish lozim.

2. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xalqaro kreditlarni ko'p mehnat talab qilinadigan tarmoq va sohalarga, xususan qayta ishlash, to'qimachilik, kimyo sanoati, elektronika yo'nalishlariga jalb etish ustuvor masalalardan hisoblanadi.

3. Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda ekologik muammolarni hal qilishga alohida e'tibor berish lozim.

4. Milliy xo'jalikning ijtimoiy, siyosiy, ekologik va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtalarini aniqlash orqali uzoq muddatli iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Ularni shakllantirishda xalqaro kredit tashkilotlarining kreditlaridan samarali foydalanish

masalalarini ham to'liq aks ettirish lozim.

5. Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratilayotgan kreditlarni hududlarga jalb qilishda mahalliy hokimiyat organlari investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha hududlarning uzoq muddatli investitsiya dasturlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga tatbiq etishlari lozim.

6. Mamlakatimiz o'zaro shartnomasi mavjud bo'lgan xalqaro moliya tashkilotlar bilan ishlash bilan bir qatorda boshqa yirik xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishi lozim. Misol qilib Jahon savdo tashkilotini keltirishimiz mumkin.

7. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda aholi turmush tarzini yaxshlashga qaratilgan yirik loyihalar ustida xalqaro moliya tashkilotlari bilan faoliyat olib borish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: – T.: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017-y. - 40b.

1.2 O‘zbekiston Respublikasining “Budget kodeksi”. T.: “O‘zbekiston” 2013-yil 26-dekabr. 2014-yil 1 yanvardan kuchga kirgan.

1.3 O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni. 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilingan.

1.4 O‘zbekiston Respublikasining “Valutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni. 2003-yil 11-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan.

1.5 O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonuni 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan.

1.6 O‘zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan.

1.7 O‘zbekiston Respublikasining “Eksport nazorati to‘g‘risida”gi qonuni 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan.

1.8 “Eksport mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyun 2000-yildagi PF-2613-sonli farmoni

1.9 “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli qarori

1.10 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

1.11 “Valuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177 sonli qarori

1.12 “Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-dekabrda PQ-3439-sonli qarori

1.13 “Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyundagi PQ-3796-sonli qarori

II. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalari

2.1 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: O‘zbekiston. – 488 bet

2.2 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lib qolishi kerak”. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 – 104 b.

2.3 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr / Sh. Mirziyoyev – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 bet.

2.4 Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent: O‘zbekiston-2016. 59 bet.

III. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

3.1 D.P. Coppola. “Multilateral organizations and International financial institutions”, “Introduction to International disaster management” 3rd edition 2015

3.2 “Capital flows – review of experience with the institutional view” – Washington D.C.: International Monetary Fund, December 2016

3.3 Peter J. Montiel. “The capital inflow problem” – Washington D.C.: The World bank

3.4 “Liberalizing capital flows and managing outflows” – Washington D.C.: International Monetary Fund, Monetary and Capital Markets Department; the Strategy, Policy, and Review Department; and the Research Department, 2012

IV. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

4.1 J. Ataniyazov, E. Alimardonov. “Xalqaro moliya munosabatlari” – darslik – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2014, 433 b.

4.2 Eiteman Stonehill Moffett “Multinational business finance” 2013, 13th edition 651 pages.

4.3 A.Vahobov, U.Burxanov, N.Jumayev, “Xalqaro moliya munosabatlari”, Toshkent moliya instituti, T: 2013

4.4 A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, Sh.I.Raxmanov, X.A.Usmanova “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” Toshkent: Voris Nashriyot 2014, 320 bet

4.5 G. Nazarova., I. Axmedov., O. Hamidov., Z. Iminov. “Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, 2011

4.6 Colin D. Campbell, Edwin G. Golan. Money, banking, and monetary policy, the Dryden Press, a division of Holt, 2013

4.7 C. Paramasivan, T. Subramanian. “Financial management”, New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women, 2011

4.8 Моисеев С.Р. «Международные финансовые рынки и международные финансовые институты». Учебное пособие. Москва: Московский международный институт эконометрики, информатики, финансов и права, 2010.

4.9 Ismailova.N, Axrarova.D. “Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalari”, Toshkent 2013, 190 bet

4.10 G. Nazarova, X. Xalilov, A. Azimov, I. Xanova. “Xalqaro iqtisodiy integratsiya”. Darslik, Toshkent: “Tafakkur”, 2010.

V. Internet saytlari

- 5.1 www.norma.uz
- 5.2 www.lex.uz
- 5.3 www.gov.uz
- 5.4 www.imf.org
- 5.5 www.worldbank.org
- 5.6 www.bis.org
- 5.7 www.cbu.uz
- 5.8 www.stat.uz
- 5.9 www.sciencedirect.com
- 5.10 www.uza.uz